

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLİY VA O‘RTA MAHSUS TA’LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

Qo‘lyozma huquqida
UDK 36:35

JABBOROV HIKMATILLA DILSHOD O‘G‘LI

**DAVLAT PENSIYA TIZIMI JAMG‘ARMALARINING
BARQARORLIGINI TA’MINLASHNING AYRIM JIHATLARI**

Mutaxassislik: 5A231301 – Pensiya ishi

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: _____ i.f.n., dots. Z.A.Abdullayev

TOSHKENT-2017

**Dissertatsiya Toshkent moliya institutining “Pensiya ishi” kafedrasida
bajarilgan.**

Ilmiy rahbar _____ **i.f.n., dots. Z.Abdullayev**

Kafedra mudiri _____ **i.f.n., dots. B.Mamatov**

Magistratura bo‘limi boshlig‘i _____ **i.f.n., dots. U.Ortiqov**

MUNDARIJA		Bet
	KIRISH	3
I-BOB.	PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING ZARURLIGI, AHAMIYATI VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI ...	9
1.1	Ijtimoiy ta'minot tizimida pensiya ta'minotining tutgan o'rni va ahamiyati	9
1.2	Pensiya ta'minoti tizimi jamg'armalarining tashkiliy-huquqiy asoslari	24
1.3	O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalari	30
	I-bob bo'yicha xulosa	36
II-BOB.	O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA JAMG'ARMALARI MABLAG'LARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI	37
2.1.	Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarining shakllanishi holatining tahlili	37
2.2.	Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan foydalanish holatining tahlili	47
2.3	Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larining shakllanishi va ulardan foydalanishning tahlili	60
	II-bob bo'yicha xulosa	69
III-BOB.	DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI JAMG'ARMALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	70
3.1	Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlash masalalari	70
3.2	O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlashning ayrim jihatlari	83
	III- bob bo'yicha xulosa	90
	XULOSA VA TAKLIFLAR	92
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	94

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi.

Mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishda shu mamlakatda tarkib topgan pensiya ta'minoti muhim o'rin egallaydi. Pensiya ta'minoti tizimi jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlarining manfaatlarini qondirish uchun mo'ljallangan, iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy institutlarni birlashtiruvchi murakkab tizim hisoblanadi. Bu tizimning muvaffaqiyati esa uning moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga, pensiya ta'minoti tizimining moliyaviy manbalari mustahkamligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Ma'lumki, 2017 yil 7 fevralda mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmonga imzo chekdi. Mazkur Farmon bilan tasdiqlangan "Harakatlar strategiyasi"da mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi. Avvalo, ushbu ustuvor yo'nalishlar va ulardagi amalga oshirilishi nazarda tutilgan vazifalar hamda chora-tadbirlarning ijrosi bugungi kunning hayotiy va ijtimoiy zarurati ekanligini ta'kidlash lozim. Darhaqiqat, Farmonda ta'kidlanganidek, mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalqning osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. "Harakatlar strategiyasi"ning "Ijtimoiy sohani rivojlantirish" to'rtinchi ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lib, bu yo'nalish aholi bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, yo'l - transport, muhandislik-kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiyalash, aholini elektr energiya, gaz bilan ta'minlashni yaxshilash, aholining muhtoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy hayotdagi maqomini oshirish, sog'liqni saqlash sohasini isloh qilish, maktabgacha ta'lim muassasalarining qulayligini ta'minlash, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va oliy ta'lim sifatini yaxshilash

hamda ularni rivojlantirish chora-tadbirlarini amalga oshirishni nazarda tutadi. “Samarali mehnat uchun zarur sharoitlar, munosib ish haqi, zamonaviy uy-joylar, sifatli ta’lim va tibbiy yordam, dam olish va hordiq chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish – bularning barchasi iqtisodiy sohadagi islohotlarimiz mohiyati va mazmunini belgilab beradigan muhim omillardir. Shu borada nafaqat eng kam oylik ish haqini, balki byudjet tashkilotlarida ham, xo‘jalik yurituvchi subyektlarda ham o‘rtacha ish haqi miqdorini, pensiya, stipendiya va ijtimoiy nafaqalar hajmini bosqichma-bosqich ko‘paytirish e’tiborimiz markazida bo‘ladi” - deydilar Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida¹.

Pensiya ta’minoti tizimining asosiy moliyaviy instituti – O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi bo‘lib, uning moliyaviy barqarorligi, birinchidan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri aholining ijtimoiy himoya tizimi barqarorligiga, ikkinchidan, Pensiya jamg‘armasiga to‘lanishi lozim bo‘lgan majburiy to‘lovlar va badallar hamda boshqa to‘lovlarga bog‘liq bo‘ladi. Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligi davlatning ijtimoiy funksiyasiga ijobiy ta’sir qiladi. Shu sababli mazkur jamg‘arma mablag‘larini shakllantirish manbalarining muntazam ravishda takomillashtirilib borilishi, tushumlarning o‘z vaqtida va to‘liq tushishini ta’minlashga erishish Pensiya jamg‘armasining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mamlakatimizda pensiya ta’minoti tizimini isloh qilishning zarurligi, ijtimoiy sohaning bu sektorini mablag‘ bilan ta’minlash manbalarini mustahkamlash zarurligi, fuqarolarning keksayganda hayot farovonligini davlat pensiya ta’minoti tizimiga muqobil asosda jamg‘arib boriladigan hamda xususiy pensiya tizimlarini shakllantirish orqali ta’minlash kabi masalalar magistrlik dissertatsiyasi mavzusining dolzarbligini belgilab beradi.

Tadqiqot ob’ekti va predmeti. Tadqiqotimiz ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi Yunusobod tumani bo‘limi faoliyati tanlab olingan. Tadqiqotimiz predmetini

¹ “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi” O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi. 07.12.2016 yil. www.uza.uz- internet sayti ma’lumotlari asosida

pensiya ta'mitoni tizimi barqarorligini ta'minlash, uning moliyaviy resurslarini shakllanishi va mablag'laridan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat mehanizmi tashkil etadi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Ilmiy izlanishimizning maqsadi mamlakatimizda pensiya ta'minoti tizimini mablag' bilan ta'minlash manbalarini o'rganish va ularni optimallashtirish masalalarini tadqiq etishga bag'ishlangan.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda, tadqiqotimiz oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- ijtimoiy ta'minot tizimida pensiya ta'minotining tutgan o'rni va ahamiyatini o'rganish;
- pensiya ta'minoti tizimi jamg'armalarining tashkiliy-huquqiy asoslarini o'rganish;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalarini o'rganish;
- davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslarining shakllanishi holatini tahlil qilish;
- davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan foydalanish holati tahlilini amalga oshirish;
- jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larining shakllanishi va ulardan foydalanishning tahl qilish;
- xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlash masalalarini tadqiq etish;
- O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlashning ayrim jihatlarini tadqiq etish;
- pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlashga qaratilgan taklif va tavsiyalar tizimini ishlab chiqish va ularni ilmiy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Ushbu magistrlik dissertatsiyamizning ilmiy yangiligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- aholining jamgʻarib boriladigan hisobraqamlariga majburiy oʻtkazmalar foizini bosqichma-bosqich oshirib boorish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berildi;

- pensiya taʼminotiga oid normativ hujjatlarni optimallashtirish, arxiv idoralarida hujjatlarni jamlash, ularning hisobini electron tarzda yuritish, but saqlanishini taʼminlash hamda ulardan foydalanishni tashkil etishga oid chora-tadbirlar amalga oshirili;

- Respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib boʻlmashligi, ularni iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan: bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, soliq, moliya va kredit sohasidagi islohotlar bilan birgalikda, uzviylikda amalga oshirish lozimligi ilmiy jihatdan asoslab berildi;

- pensiya taʼminoti moliyaviy manbalarini oshirish masalalari ilmiy jihatdan asoslab berildi va boshqalar.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Tadqiqotning ilmiy farazlari shundan iboratki, mablagʻlarining cheklanganligi sharoitida pensiya taʼminoti borasidagi davlat siyosatini byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan taʼminlash imkoniyatlari istiqbolda cheklangan ekan, tizimni boshqa moliyaviy manbalar hisobidan, xususan, xususiy pensiya jamgʻarmalari, korporativ pensiya taʼminoti mablagʻlari hisobidan rivojlantirish lozim, shu bilan birga, hududning iqtisodiy oʻsish omillarini kuchaytirish orqali pensiya jamgʻarmalari barqarorligiga erishmoq zarur.

Tadqiqot mavzusi boʻyicha adabiyotlar sharhi (tahlili). Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti tizimi, pensiya taʼminotini ijtimoiy ahamiyatini oshirish, uning moliyaviy resurslarini shakllanishi va ulardan oqilona foydalanishga doir masalalar xorijlik iqtisodchi-olimlardan G.B. Polyak, M. Romanovskiy, O. Vrublevskaya, B. Sabanti, E.E. Machulskaya, V.G. Popov, V.D. Roik, I.Yakobson, L.I. Polishchuk, V.B. Benevolenskiy, A.N.Ivanov, S.V. Kadomtseva, P.K.Lavrenteva va boshqalar tomonidan tadqiq qilingan. Fuqarolarning pensiya taʼminoti, pensiya taʼminoti tizimi barqarorligini taʼminlash, davlat ijtimoiy

ta'minoti tizimida innovatsiyalardan foydalanishga tegishli bo'lgan muammolar xususida ilmiy izlanishlar olib borgan mamlakatimiz iqtisodchi-olimlaridan M.K.Abdullaeva, A.V.Vahabov, Z.X.Srojiddinova, R.T.Dalimov, Dj.R.Zaynalov, G.A. Qosimova, T.S.Malikov, N.H.Haydarov, N.M. Majidov, G.K. Saidova, B.X. Umurzakov, M.A.Xakimova, B.Sh. Xusanov, D.Rustamovlar, ilmiy ishlarini alohida ta'kidlab o'tish mumkin. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida respublikamizda fuqarolar pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish, ular moliyaviy barqarorligini ta'minlash, mablag'laridan maqsadli foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish muammolari iqtisodiy adabiyotlarda kam o'rganilgan ilmiy-amaliy muammo bo'lib, magistrlik dissertatsiyasi mavzusi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot davomida dissertant tomonidan dialektik usul, xronologik va solishtirma tahlil usuli va bilishning boshqa umumilmiy usullari: deduktsiya va induktsiya, analiz va sintez, iqtisodiy-matematik, statistik, tuzilmaviy, prognoz baholash, tizimli-mantiqiy va boshqa yondashuvlar qo'llanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning nazariy ahamiyatini unda pensiya ta'minotining ijtimoiy zarurligi, turli pensiya tizimlari modellarining mazmuni, xususiyatlari, ishlash printsiplari, afzallik va kamchiliklari ochib berilganligi, mamlakatimizda pensiya ta'minoti taraqqiyotining tashkiliy-huquqiy asoslari ko'rsatib berilganligi, pensiya ta'minoti tizimlarining moliyaviy manbalari tahlil qilinganligi, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti moliyaviy mablag'lari shakllanishi va ishlatilishi amaliyoti batafsil bayon etilganligi va shu asosda tanlangan mavzu bo'yicha yaxlit ilmiy ish shakllantirilganligi belgilab beradi. Ishning amaliy ahamiyati shundaki, unda pensia ta'minoti moliyaviy manbalarini kompleks tahlil qilish asosida pensiya ta'minotining mablag' bilan ta'minlashni yaxshilash, manbalar o'rtasida oqilona nisbatlar bo'lishiga erishish, moliyaviy manbalarni mustahkamlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Ilmiy tadqiqot ishi tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish, uchta bob, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 99-betlik matnni tashkil etgan hamda o'z ichiga 13 ta rasm va 11 ta jadvalni qamrab olgan.

Ishning birinchi bobida pensiya ta'minoti tizimini, uning zarurligi, ahamiyati va tashkiliy-huquqiy asoslari o'rganilgan.

Ishning ikkinchi bobida O'zbekiston Respublikasida pensiya jamg'armalari mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishning hozirgi holati tahlil etilgan.

Ilmiy tadqiqot ishining uchinchi bobida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida pensiya tizimi jamg'armalarining barqarorligini ta'minlash masalalari ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Ishning xulosa qismida har bir bob bo'yicha shakllangan xulosalar umumlashtirilgan va tadqiqot natijasiga ko'ra shakllangan taklif va tavsiyalar tizimlashtirilgan holda keltirilgan.

I-BOB. PENSIYA TA'MINOTI TIZIMINING ZARURLIGI, AHAMIYATI VA TASHKILIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1 Ijtimoiy ta'minot tizimida pensiya ta'minotining tutgan o'rni va ahamiyati

Kuchli ijtimoiy siyosat yuritish, fuqorolarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishga muxtoj tabaqalarini manzilli ijtimoiy himoya qilish taraqqiyotimizning muhim hususiyatlaridan biridir. Bugungi sharoitda pensiyalarga oid qonunchilikni takomillashtirish, inson huquqlariga oid xalqaro standartlarni keng joriy etish, davlat peniyalarini tayinlash va to'lash chog'ida ijtimoiy adolat tamoyillarini to'la qaror toptirish, ana shu maqsadlarda ajratilayotgan moliyaviy resurslardan samarali hamda maqsadli foydalanishga erishish amalga oshirilib kelinayotgan yangilanish va modernizatsiya qilish jarayonlarimizning muhim jihatlaridan sanaladi.

Mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan huquqiy islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri-inson manfaatlarini oliy qadriyat sifatida har tomonlama ta'minlash va muhofaza etishdan iboratdir. Amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarni samaradorligini oshirish hamda aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish pensiya ta'minoti tizimini yanada rivojlantirishni taqazo qiladi.

Ma'lumki inson uchun birinchi navbatda, uning ehtiyojlar yig'indisini tashkil etgan hayotiy muhim manfaatlar alohida ahamiyat kasb etadi. Bu ehtiyojlarning qondirilishi esa har bir fuqaro, jamiyat va davlatning munosib hayot kechirishi va taraqqiyotini ta'minlovchi omil hisoblanadi.


Inson ushbu ehtiyojlarini mehnat qilish orqali qondirib, bu bilan o'z turmush farovonligini oshirib boradi. Shuning uchun bosh qonunimiz sanalmish O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasida "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek boquvchisidan mahrum bo'lganda va

qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega"² ekanligi belgilab qo'yilgan.

Davlat mehnatga layoqatsiz barcha fuqarolarni ijtimoiy jamg'armalar mablag'lari hisobidan, pensiya va ijtimoiy nafaqalar orqali Konstitutsiyamizda mustahkamlab qo'yilgan huquqlarini kafolatlaydi. Pensiya ta'minoti tizimi fuqorolarning turmush darajasi o'sishini ta'minlash manbai hisoblanadi, pensiyalarni olish huquqiga esa mehnat qilish orqali erishiladi.

Pensiyaning mohiyatini "pensiya" so'zi ochib beradi. Pensiya so'zi lotin tilidagi "pension" so'zidan olingan bo'lib, "to'lov" ma'nosini anglatadi.³

"Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizomda pensiya so'ziga quyidagicha ta'rif berilgan: "Pensiya-uni olish huquqi Qonunda belgilangan shartlarga va me'yorlarga muvofiq aniqlanadigan hamda shaxslarga pensiya yoshiga to'lish, nogironlik yoki boquvchisini yoqotganlik munosabati bilan beiladigan oylik pul to'lovi".⁴



1.1-rasm. Pensiya ta'minoti tizimining maqsadlari⁵

Pensiya tizimi mamlakatimiz aholisini ijtimoiy himoyalash tizimining

² O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. -T.: "O'zbekiston". 2008,9-bet.

³ Saidov M.X. Ijtimoiy himoya. Atamalar izoxli lug'ati. -T.: "A.Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti". 2004, 73-bet

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-dekabrda 252-son "Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi Nizom

⁵ G.Qosimova, Z.Karimova. Budjetdan tashqari fondlar. O'quv qo'llanma. 2009-y.

muhim qismi bo'lib, uning asosiy maqsadi kam ta'minlangan fuqarolar va mehnatga layoqatsiz kishilar hayot darajasini oshirishga qaratilgan iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va tashkiliy xarakterga ega kompleks dastur talablarini ijro etishdan iborat. Shu bois Prezidentimiz tashabbusi bilan istiqlol yillarida aholini ijtimoiy himoyalashni yanada kuchaytirish, pensiya ta'minoti sifatini oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich islohatlar olib borilmoqda. Natijada o'tgan qisqa davr ichida respublikamizda aholini ijtimoiy muhofaza qilish va kafolatlashning kuchli hamda ta'sirchan mexanizmi yaratildi. Bugungi kunda iqtisodiy xayotni pensiya tizimisiz tasavvur qilib bo'lmaydi, har bir davlat o'z pensiya tizimiga ega. Davlat o'z yo'nalishi, turini va to'lov funktsiyalarini belgilab olib pensiya jamg'armalari boshqariladi va tashkil etiladi. Pensiya tizimi kompleks tushuncha asosida tashkil topgan bo'lib, pensiya jamg'armalarining tashkiliy boshqaruvi munosabatlari orqali fuqarolarni moddiy tomondan pensiya bilan ta'minlash va to'lash, boshqarma va tashkilotlarning pensiya ta'minoti munosabatlari orqali yuzaga keladi. Pensiya tizimi davlat tomonidan tashkil etilgan barcha huquqiy, moliyaviy-iqtisodiy, tashkiliy institutlar me'yorlari asosida fuqarolarni moddiy ta'minot ko'rinishidagi nafaqalar bilan maqsadli ta'minlash xisoblanadi. Pensiya tizimi huquqiy tushuncha bulib, buning asosida me'yoriy boshqaruv yig'indilari asosiy uch xil xarakterli jamoaviy munosabatlar guruxiga ajratiladi⁶:

- pensiya jamg'armasining tashkilot va boshqarma munosabatlari;
- pensiya jamg'armasining tashkiliy munosabatlari, bunda pensiya to'lovlarining to'lanishi va boshqa to'lovlar hisobiga shakllanadi;
- jamiyat a'zolarini pensiya va boshqa pensiya to'lovlari bilan moddiy ta'minlash munosabatlari.

Demak, davlat pensiya ta'minoti tizimi yuqorida aytib o'tilgan hollarda davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta'minot olishni ro'yobga chiqarish vositasidir. Bundan tashqari, har qanday davlatda shunday shaxslar toifasi doimo mavjudki, ular obyektiv sabablarga ko'ra (pensiya yoshi, sog'lig'i, ishsizlik darajasi kabi),

⁶ Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y. p.36

ishlab chiqarishda ishtirok eta olmaydilar. Shu bois ularni ijtimoiy jihatdan himoyalashni davlat o'z zimmasiga oladi, mamlakatda yaratilgan Yalpi ichki mahsulotning bir qismi ular foydasiga qayta taqsimlanadi.

Pensiya ta'minotining zaruriyati mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida aholi uchun ijtimoiy qiyinchiliklarni yengillashtirish bilan bog'liq.

Pensiya tizimi oldida uchta muhim maqsad turadi:

birinchidan, fuqorolarni keksalik chog'ida kambag'allikdan himoyalash;


ikkinchidan, mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni ta'minlash;

uchinchidan, bu daromaddan kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoyalalanish tarzida foydalanish.

Xozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida qarama-qarshiliklar mavjud bo'lib, davlatning pensiya tizimi bozor sharoitida ijtimoiy muvozanatni saqlab qoluvchi asosiy omil hisoblanadi. Pensiya tizimini har bir davlat o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va modeliga qarab tashkil etib, takomillashtirib bormoqda.

Pensiya tizimi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi. Aholini ijtimoiy himoyalash tizimi o'z ichiga pensiya ta'minotidan tashqari, nogironlar va ota-onasi qaramog'ida bo'lmagan bolalarni ijtimoiy himoyalashni qamrab oladi. Jamiyatning pensiya tizimi pensiya ta'minoti uchun xizmat qiluvchi maxsus muassasalar, pensiyani amalga oshirish mexanizmi hamda shu sohadagi davlat siyosatini amalga oshirishga xizmat qiluvchi iqtisodiy dastak va vositalarni qamrab oladi.

Pensiya tizimining pirovard vazifasi inson ehtiyojini hamda uning keksalik chog'ida himoyalalanishga talabini qondirishdir, ya'ni pensiya ta'minotini amalga oshirish, mehnat jarayonida insonning salomatligi va mehnat qobiliyatini muhofazalash imkonini beradigan turkum tashkiliy-huquqiy, moliyaviy-tibbiy chora-tadbirlar yig'indisidir.




1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti tizimi⁷

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan kuchli ijtimoiy siyosatning muhim yo'nalishi ham shundaki, bu siyosat fuqorolarning pensiya ta'minoti tizimining doimiy takomillashtirib borilishini taqazo etmoqda. Bu borada so'nggi yillarda qabul qilingan qonunchilik xujjatlari, farmonlar va qarorlar aholining keksa yoshdagi fuqarolar hamda ijtimoiy muhofazaga muxtoj qatlamlarini qo'llab-quvvatlash orqali ularning turmush faoliyatini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.


Jahon amaliyoti tajribalaridan shu ma'lumki, pensiya ta'minoti tizimi uchta pensiya ta'minoti tizimiga ajratilgan. Buni 1.3-rasm orqali ko'rish mumkin.

⁷ Amaldagi qonunchilikga asosan muallif tomonidan mustaqil tuzildi



1.3-rasm. Pensiya ta'minoti tizimi⁸

Pensiya ta'minoti tizimi o'zining vazifalaridan kelib chiqqan holda to'rtta funktsiyani bajaradi:



1.4-rasm. Pensiya ta'minoti tizimining funktsiyalari⁹

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti davlatlarida pensionerlarni ijtimoiy jihatdan himoya qilish vazifasi an'anaviy ko'rinishda hal qilinadi. Fuqaroni pensiya huquqlarining aksariyat qismi u tomonidan mustaqil ravishda ishlab topiladi. Agar qonun asosida o'rnatilgan pensiya minimumini ta'minlash uchun mablag' yetishmasa davlat byudjeti hisobidan qoplanadi. Taraqqiy etgan

⁸ Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y. p.45

⁹ Muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

mamlakatlarning amaliyoti ko'rsatishicha, sug'urta mezonini sifatida ishlovchiga qarilikda aholi turmush darajasini saqlash imkonini beradigan yo'qotilgan ish haqini qoplash darajasi qabul qilingan. Shu maqsadda u yoki bu ko'rinishdagi, uni iqtisodiy va ijtimoiy mazmunini o'zgartirmaydigan qoplash koeffitsienti qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichning o'zgarishi har bir mamlakatning tarixan shakllangan xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari asosida sodir bo'ladi. Xalqaro mehnat tashkilotining tavsiyasiga ko'ra qoplash koeffitsientining minimal miqdori yo'qotilgan ish haqini 40% ga teng bo'lishi kerak. Har bir pensionerga 5-6 ishlovchi to'g'ri kelishi va to'lovlar pensiya tizimidagi "avlodlar birdamligi" tamoyiliga asoslangan bo'lishi kerak. Shu bilan bir qatorda taraqqiy etgan mamlakatlar jamg'ariladigan pensiya tizimi va korporativ pensiya fondlariga qo'shimcha to'lovlarni joriy etish hisobidan ishlovchilarni mehnat daromadlarini qoplash koeffitsienti miqdorini keskin oshirdilar.

Pensiya ta'minot sohasidagi qonunchilik tizimi isloh etilar ekan, fuqarolarni pensiyalar bilan ta'minlanishida ularning jamiyat boyliklari ko'payishiga qo'shgan shaxsiy hissasini hisobga olish, mehnat staji miqdori va sifati, mehnat sharoitlarining zararli va noqulayligi to'liq hisobga olinishi, shu bilan birga texnika va texnologiyalarda yuz bergan tub o'zgarishlar tufayli zararsiz hamda mehnat sharoitlari qulay va xavfsiz bo'lib qolgan joylarda mehnat qilayotgan shaxslarning eski norma va qoidalarga ko'ra asossiz pensiya imtiyozlari olishlariga yo'l qo'yilmasligi zarur bo'lib, bu ijtimoiy adolatni ta'minlash, tadbirkorlar huquqlarini himoyalashning muhim shartlaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan hozirgi qonunchiligimizda pensiya ta'minoti uchun ikki asosiy talab qo'yilgan:

1. Fuqarolarga pensiya ta'minoti huquqini beruvchi shartning mavjudligi (bu pensiya yoshiga to'lish, turli sabablarga ko'ra nogiron bo'lib qolish, boquvchisini yo'qotish);
2. Pensiya olishga ariza bergan fuqarolar uchun zarur ish stajining mavjud bo'lishi.

Davlat pensiyalarining turli xillarini olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga ularning o'zlari tanlagan bitta pensiya tayinlanadi. Qonun bilan davlat pensiyalarining quyidagi turlari belgilanadi: yoshga doir pensiya; nogironlik pensiyasi; boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi. Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash davlatlararo bitimlar (shartnomalar) asosida amalga oshiriladi. Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari ushbu Qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emas, ularning ijtimoiy ta'minot tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydi.

Inson hayoti davomida uning sog'ligiga ta'sir etuvchi va buning natijasida uning asosiy daromad manbai bo'lmish ish haqini yo'qotishiga olib keluvchi shart-sharoitlarning yuzaga kelish xavfi ostida turadi. Ushbu shart-sharoitlarga: kasallanish, qarilik, nogironlik, boquvchisini yo'qotish va boshqalar kiradi. Mustaqil ushbu sharoitlarga qarshi kurashish har doim ham mumkin emas. Ular shaxsning faol faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, alohida shaxslarning hoxish va irodasiga bog'liq bo'lmaydi. Shu bilan birgalikda ular to'g'ridan-to'g'ri jamiyatning ijtimoiy barqarorligiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham davlat ushbu holatning yuzaga kelishidagi ma'lum bir javobgarlikni o'z zimmasiga olib, davlat pensiyalarini, ijtimoiy nafaqalarni va xizmatlarni tayinlash orqali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantiradi.

Inson hayot-faoliyati davomida ma'lum bir hodisalarni ijtimoiy xavf-xatar sifatida namoyon bo'lishining asosiy omillari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- iqtisodiy tizim va umumjamiyat mehnat faoliyatini tashkil etishning shart-sharoitlari;
- mehnat faoliyati natijasida, shuningdek oila ichidagi uni ta'minoti uchun daromadning yo'qligi, oiladagi mehnatga qobiliyatsiz a'zolariga qo'shimcha xarajatlarning yuzaga kelishi;
- davlat va jamiyatning aytib o'tilgan shart sharoitlarning natijalarini bartaraf etishga yoki uni engillashtirishga bo'lgan qiziqishining mavjudligi.

Inson mehnat qobiliyatiga va tabiatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy xavf-xatarlarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin:

1. Iqtisodiy tushdagi (ishsizlik);
2. Fiziologik tushdagi (vaqtinchalik yoki doimiy asosda mehnatga qobiliyatligini yo'qotish, homiladorlik yoki bola tug'ish, qarilik, o'lim);
3. Faoliyat yuritish tushdagi (mehnatdagi shikastlanish, kasbiy kasalliklar);
4. Demografik va ijtimoiy tushdagi (ko'p bolalilik, oilaning to'liq emasligi, etimlilik).

Iqtisodiy va demografik xavf-xatarlar shaxsning mehnatga qobiliyatiga to'g'ridan-to'g'ri aks etmaydi. Lekin ish joyining uzoq vaqt davomida mavjud bo'lmashligi, ishsiz shaxsning va uning oilasining umumiy hayot davomiyligi ko'rsatkichini pasayishiga, shuningdek, uning kasbiy mahoratini yo'qotishiga olib keladi. Ko'p bolalilik bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar o'z navbatida oilaning o'rtacha daromadini yashash savatchasi xajmidan past bo'lishiga, oziqlanish, dam olish va boshqa xayotiy sharoitlar sifatining aksi.

Ijtimoiy siyosat deganda jamiyatdagi har bir shaxs hayoti va faoliyati uchun uning rivojlanishiga yordam beradigan va ijodiy imkoniyatlarining to'liq namoyon qilishini rag'batlantiradigan zarur shart-sharoitlarni yaratish va saqlab turishga qaratilgan barcha chora-tadbirlar tushuniladi¹⁰.

Barcha oldiga yuksak maqsadlar qo'ygan vakelajakka yorug' yuz va ishonch bilan intilgan mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida pensiya ta'minoti eng ma'suliyatli vazifa bo'lib hisoblanadi. "Pensiya" kategoriya sifatida pul mablag'larining maqsadli fondlarini shakllantirish va keksaygan chog'ida undan foydalanish shakli va usullari yig'indisini o'z ichiga oluvchi iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

Jahonda samarali faoliyat yurutuvchi davlat pensiya tizimi quydagi xalqaro talablarga javob berishi lozim:

- majburiy ishtirok – pensiya tizimi majburiy to'lovlar hisobiga shakllanadi;

¹⁰ Marc Whitehead "The social security disability puzzle" 2010 y. p.45

- moliyaviy barqarorlik – pensiya fondiga to‘lanadigan sug‘urta badallar to‘lanadigan pensiya summasini to‘liq qoplaydi;
- pensiya bilan taminlanganlik – pensiya olish huquqiga to‘langan badallar hisobiga erishiladi va uning qiymati pensiya fondiga to‘lanadigan sug‘urta badallar qiymati va to‘lov davomiyligiga bog‘liq bo‘ladi;
- pensiya tizimi barqarorligi muntazam baholanadi.

Pensiya ta‘minoti tizimining rivojlanish tarixi bir necha ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Xozirgi pensiya ta‘minoti tizimining shakllari birinchi bor Rim imperiyasida ko‘rina boshlagan. Rim imperiyasida bosib olingan yerlarning bir qismi xarbiylar orasida taqsimlangan bu xarbiylarning yaxshi yashashi keksalikda qiynalmasligi uchun xizmat qilgan. Lekin Rim imperiyasi davridagi pensiya ta‘minoti tizimi xozirgi pensiya ta‘minoti tizimiga nisbatan axolini tor doirada qamrab olgan.

Birinchi “Pensiya ta‘minoti” tizimi XIX-asrning oxirlarida Germaniyada vujudga kelgan. 1883-yil kasallik uchun pensiya, 1884-yil mehnat sharoitida shikastlanganlik uchun pensiya va 1889-yilda qarilik pensiyasini joriy etildi. “Temir kansler” Otto Fon Bismark sotsiolistlarning noroziliklarni ortib borishini oldini olish maqsadida ijtimoiy sug‘urta g‘oyalariga asoslangan birinchi keng qamrovdagi jamg‘arib boriluvchi pensiya ta‘minoti tizimi joriy etilgan. Otto Fon Bismark tomonidan taklif qilingan tizimning strukturasi o‘rta asrlardagi G‘arbiy yevropada savdogarlar va hunarmandlar birlashmasi tomonidan axolining ishchi qatlami va xizmatchilarning ma‘lum qismiga yordam berish maqsadida tashkil qilingan fondler negizida asoslanib tashkil etilgan. Otto Fon Bismarkning fikricha pensiya yo‘qotilgan daromadni qoplashi kerka bo‘lgan va pensiya miqdori ishchining oylik ish xaqidan to‘lanadigan majburiy sug‘urta badaliga bog‘liq bo‘lgan. Shundan kelib chiqib ishchilar o‘z pensiyalarini o‘zlari moliyalashtirgan. Davlatning pensiya a‘minoti tizimiga aralashuvi keskin kamaytirilgan.

1900-yilda nogironlik pensiyasini oluvchilar soni 600 ming kishini tashkil etgan. Germaniya pensionerlarining $\frac{2}{3}$ qismi nogironlik pensiasini oluvchilar bo‘lsa, $\frac{1}{3}$ qismi esa qarilik pensiyalarini olardilar. Ma‘lumot o‘rnida shuni aytib

o'tish kerakki, o'sha vaqtda erkaklarning o'rtacha yashash yoshi 40,6 yoshni, ayollarning o'rtacha yashash yoshi 44 yoshni tashkil etganiga qaramasdan pensiya yoshi 70 yosh qilib belgilangan. Aynan shuning uchun qarilik pensiyasini oluvchilarning soni kam bo'lgan. Bu davrda yolg'izlik pensiyasini oluvchilar soni 1,7 mln kishini tashkil etgan.

1891-1898 yillar oralig'ida nemis pensiya ta'minoti tizimi prinsplariga nisbatan yangi va mukammal funksiyalar asosida Daniya va Yangi Zellandiya davlatlarida pensiya ta'minoti tizimi vujudga keldi. O'sha davrlarda pensiya ta'minoti tizimi axolining qashshoq qatlamiga maqsadli yordam berish maqsadida yaratilgan. Daniya va Yangi Zellandiyada pensya ta'minoti tizimining asosiy maqsadi axolini eng quyi qatlamini eng kam ish haqi bilan ta'minlash bo'lgan.

Bu tizimni moliyalashtirish ishchi xodimlarning ish haqidan ushlanib qoladigan sug'urta badallari orqali emas balki byudjetga to'g'ridan-to'g'ri tushadigan soliqlar orqali moliyalashtirilgan.

XX-asrning 30-yillarigacha Germaniya va Daniya pensiya ta'minoti tizimi g'arbiy yevropaning bir nechta davlatlarida ko'rina boshladi. Masalan Avstriyada 1906-yilda, 1908-yilda Buyuk Britaniyada, 1910-yilda Fransiyada, 1913-yilda Shvetsiyada, 1919-yilda Italiya va Ispaniyada, 1927-yilda Kanadada, pensiya ta'minoti tizimi tashkil etildi. Pensiya ta'minoti tizimini rivojlanish tarixida eng asosiy rolni II-Jaxon urushi va II-Jaxon urushidan oldin yuz bergan global moliyaviy inqiroz bajardi. G'arb mamlakatlari pensiya ta'minoti tizimining asosiy tamoillari va funksiyalarini qayta ko'rib chiqish va o'zgartirishlar kiritish pensiya ta'minotini rivojlantirishda huddi mana shu XX-asrning eng qiyin davrlari muhim ahamiyat kasb etdi. Xususan Buyuk britaniyaning taniqli iqtisodchisi Lord William Genri Beveridjning liberal tamoillarga asoslangan pensiya ta'minoti tizimidan voz kechib davlat tomonidan kafolatlangan pensiya taminoti tizimiga o'tish kerak degan fikrlari keng qamrovda tarqalib ketti. Genri Beveridj ko'p tomonlama Daniya va Yangi Zellandiya tajribalariga tayandi, chunki bu davlatlar pensiya tizimidagi fikrlarini zahirida inqiroz va II-Jaxon urushi jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti tizimini barbod qilgani va birinchi maqsad bunday sharoitda

yordamga muhtoj aholini eng kam ish haqi bilan ta'minlash turardi. Shunday qilib Genri Beveridj pensiya ta'minoti tizimi fuqorolarning avvalgi pensiya jamg'armasi oldidagi xizmatlarini va mehnat stajini e'tiborga olmagan holda barchaga bir xil pensiya berishni olg'a surardi. Genri Beveridj va Bismark modelining tub mohiyatidagi asosiy farqi shulardan iborat ediki, Bismarkning g'oyasi ishchining pensiyaga chiqqandan so'ng uning ijtimoiy mavqeini saqlash va yo'qotgan daromadini qoplab berishga yo'naltirilgan edi. Genri Beveridjning g'oyasida pensiya bu – qashshoqlikka qarshi himoya vositasi va shuning uchun davlat barcha muhtoj kishilarni pensiya bilan taminlashni majburiy kafolatlashi karak deb hisobl

Genre Beveridjning g'oyalari asosida tuzilgan pensiya ta'minoti tizimi 1946 yilda Buyuk Britaniyada qonuniy tasdiqlandi. Shu paytda shved ijtimoiy-demograflari universal pensiya tizimiga ovoz berishdi. Biroz vaqt o'tgandan keyin Genri Beveridj pensiya tizimiga asoslangan pensiya ta'minoti tizimlari Norvegiya, Kanada, Niderlandiya, Avstriya, Finlandiya, Shveytsariya, va Daniyada paydo bo'ldi.

Bismark pensiya ta'minoti tizimida pensioner pensiyaga chiqqanidan so'ng oladigan pensiya miqdori uning oulik ish haqini 60-70% ni tashkil qilgan ammo Genri Beveridjning tizimida bu korsatkich 50% ga ham yetmagan.

“Ijtimoiy muhofaza” atamasi birinchi marta 1935 yilda AQSHning “ijtimoiy muhofaza to'g'risida”gi qonunida ishlatilgan edi. Bu qonun keksalik, o'lim, nogironlik va ishsizlardan majburiy sug'urtalash institute faoliytining huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur qonun mamlakat uchun yangilik bo'lgan va tez orada bu atama dunyoning ko'pgina mamlakatlarida va XMTda keng qo'llanila boshladi, chunki u keksalar va mehnatga qobilyatsizlarga yordam berish milliy dasturlari va tizimlarini tashkil etish muammosining mohiyatini soda va tushunarli tarzda ifodalagan. AQSHda ijtimoiy taminot va ijtimoiy yordan ko'rsatishning davlat tizimi 1935 yida yaratildi. Ijtimoiy dasturlarni byudjetdan moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, davlat ijtimoiy sug'urtasimehanizmi amal qila boshladi. AQSHda “Federal pensiya sug'urtasi to'g'risida”gi qonun qabul qilindi, mazkur qonun bilan AQSH hukumati kam ta'minlangan qariyalarni ijtimoiy himoya qildi. Ish

beruvchilar ishchi hodimlarga belgilangan pensiya ta'minoti uchun 100% gacha zaxira mablag'lari tayyorlab qo'yishlari talab etildi. Pensiyani to'lash va'dasini bergan Amerika kompanyalari zarur mablag'larni alohida hisobraqamlarda darhol to'lashni boshladi. AQSHda aholini ijtimoiy himoyalashning o'ziga xos tizimi hozirgi kungacha amal qilib kelmoqda. AQSHda aholini ijtimoiy himoyalash tizimi ikki qismdan iborat bo'lib, birinchidan aholini ijtimoiy himoyalashni davlat tizimi mamlakat Konstitutsiyasida ifoda etilgan huquqiy meyorlar asosida tashkil etilgan. Bu himoya tizimi asosan aholining o'z-o'zini ijtimoiy himoyalashga keng huquqlar berilgan. Asosiy e'tibor fuqorolarning o'z daromadlarini o'zlari ko'paytirishlariga qaratilgan. AQSHda ijtimoiy himoyalash tizimining ikkinchi qismi ijtimoiy ta'minot bo'lib bu tizim asosan 65 yoshdagi ayollar va 66 erkaklarga mehnat staji, yani pensiya olishlari uchun 26 yil ish stajiga ega bo'lishlari zarur. Keying qonunlarda ish staji 25 yil bo'lishi talab etilmoqda. Ish staji qanchalik kam bo'lsa, pensiya miqdori ham kam bo'ladi. AQSH pensiya ta'minoti tizimi barcha xususiy korxonalarda ishlovchi ishchilarning daromadlarini e'tiborga olmagan holda pensiya bilan ta'minlovchi birinchi davlatga aylanishdi.

XX-asrning ikkinchi yarmida g'arbiy davlatlarda pensiya ta'minoti tizimida sekinlik bilan bir-biriga o'xshashliklari paydo bo'la boshladi. Pensiya ta'minoti tizimining sug'urta to'lovlariga asoslangan (Bismark modeli) davlatlarda va eng kam pensiya miqdori kafolatlangan, byudjet tomonidan moliyalshtiriladigan pensiya tizimiga ega bo'lgan davlatlarda esa birinchi marta ijtimoiy ta'minot elementlari ko'rina boshlagan. Chunki Genri Beveridj modeliga asosan davlat o'z axolisining yashash uchun zarur b'lgan pensiya miqdori bilan ta'minlab turgan. Bismark va Genri Beveridj modellari pensiya ta'minoti tizimlarining orasidagi yagona modellar xisoblanmaydi. Tarixchilarning xisob-kitobiga ko'ra XX-asrning oxirlari XXI-asrning boshlariga kelib pensiya tizimi funksiyalarini bajaruvchi tizimlar soni 250 taga yetgan va ularning xar biri o'z xususiyatlariga ega. Barcha pensiya tizimlari funksiyalari barcha modellarda bir xil tamoillarga asoslangan bo'lib ular qisman farq qiladi.

1.1-jadval

Pensiya ta'minoti tizimining rivojlanishi¹¹

Mamlakatlar	Davr	Jarayon
Germaniya	1889	Kansler Bismark tomonidan "Yagona davlat prnsiya"si joriy etildi
Daniya	1891	Maqsadli, qashshoqlarga ko'maklashishga qaratilgan pensiya ta'minoti joriy qilindi
Yangi Zellandiya	1898	
Avstriya	1906	Ishchi guruh davlat pensiya ta'minoti bilan qamrab olindi
Buyuk Britaniya	1908	
Fransiya	1910	
Shvetsiya	1913	
Italiya	1919	
Ispanya	1919	
Gollandiya	1919	
Chili	1924	
Kanada	1927	Zaruriylilik me'zoni asosida davlat pensiya tizimi amalga tadbiq qilindi
AQSh	1935	"Federal pensiya sug'urtasi tizimi" akti imzolandi
Yaponiya	1954	Barcha sohalar davlat pensiyasi bilan qamrab olindi

Pensiya fondlarini tashkil qilish pensiya ta'minoti tizimlari orasida eng ko'p tarqalgan turi xisoblanadi. Ma'lum bir vaqt davomida yig'ilgan to'lovlar xar bir ishchining oylik maoshidan ajratmalar ishchilarning shaxsiy xisob varaqalarida yig'ilib boradi va bu summa pensiya manbasi xisoblanadi, bu orqali pensiya tizimining taqsimlash tamoilini ham ko'rish mumkin.

¹¹ Internet sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirildi

Xozirgi davrga pensiya ta'minoti tizimining rivojlangan bosqichiga kelib pensiya modellarining faoliyatini jamg'arish yoki tizimlarini alohoda ko'rmaymiz balkim bu tamoillarning har ikkisi ham birdek pensiya tizimlarining ajralmas qismi ekanligini bilamiz.

XIX-asrning oxirlari XX-asrning boshlariga 70-80 yillar davomida iqtisodiyotning dinamik o'sishi oqibatida axoli turmush darajasi yaxshilandi va axolining demografik o'sishi vujudga keldi. Iqtisodiyotning dinamik rivojlanishi natijasida axolining o'rtacha yoshi ko'tarildi bu pensiyanerlarning sonini ortishiga olib keldi. Bu o'z-o'zidan uchinchi tamoil "qayta taqsimlash" tamoilini kelib chiqishiga sabab bo'ldi. Axolining demografik o'sishi ishchilarning ortishi va parallel ravishda ishchilarning daromadlarini ortishi katta miqdordagi ijtimoiy to'lovlarni to'lanishini kafolatladi berdi. Ishchilarning daromadlarini tartibga solish mehanizmi va axolini ish bilan bandligini nazorat qilish tizimi pensiya ta'minoti tizimi funksiyalarini amalga oshirishni barqarorlashtirgan. Ammo XX-asrning ikkinchi yarmiga kelib rivojlangan mamlakatlar katta muammoga duch kelishdi bu axoli orasida pensionerlarning keskin ko'payishi xisoblanadi. Pensionerlar sonining keskin ortishi bu davrlarda ko'pchilik davlatlardagi bir martalik taqsimlash tizimi samarali faoliyat yuritishiga to'sqinlik qildi. bu paytlarda bu muammoni faqatgina pensiya miqdorini kamaytirish va pensiya yoshini oshirish orqali hal etilgan. Bu ikki usulni eng to'g'ri yo'l deyishimiz mumkin edi ammo ular samarali yechimni topish emas balki yechimni keying surish bilan cheklangan. Pensiya tizimini isloh qilish faqatgina pensiya ta'minoti tizimining muammosi sabab bo'lmagan bunga davlatning makroiqtisodiy xolati ham sabab bo'lgan.

Axolining ishga layoqatli qismining kamayishi g'arbiy davlatlar iqtisodiyotida omonatlar ulushining qisqarishiga sabab bo'ldi. Bu mamlakatning ichki investitsiyasiga ta'sir etibgina qolmay mamlakat iqtisodiyotining o'sishini ham sekinlashtirib qo'ydi. 80-90 yillarga kelib rivojlangan davlatlarda milliy darajada pensiya ta'minoti tizimida yangi islohotlar o'tkazildi va pensiya ta'minotida qo'llanila boshladi. Natijada pensiya ta'minoti tizimiga jamg'arish mehanizmi ham qo'shildi.

1.2 Pensiya ta'minoti tizimi jamg'armalarining tashkiliy-huquqiy asoslari

Pensiya ta'minoti tizimi amal qilishining tashkiliy-huquqiy asoslari to'g'risida gap borar ekan, dastlab aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, pensiya ta'minoti uchun majburiy badallarning to'liq kelib tushishi hamda davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lashga xarajatlarni o'z vaqtida moliyaviy ta'minlash uchun ijtimoiy ta'minot organlarining mas'uliyatini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 27 dekabr 459-son qarori bilan Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ijtimoiy sug'urta jamg'armasi negizida O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzurida Qoraqalpog'iston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi va ijtimoiy ta'minot mahalliy organlari qoshida tegishli hududiy bo'linmalari va bo'limlari bo'lgan Pensiya jamg'armasi tashkil etilgan edi. Pensiya jamg'armasining pul mablag'lari 1997 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga kiritildi, bunda bu jamg'arma mablag'larini shakllantirish va sarflashning maqsadli yo'naltirilganligi saqlab qolindi. Pensiya jamg'armasiga rahbarlik qilish Pensiya jamg'armasining 9 kishidan iborat boshqaruvi hamda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi ijro etuvchi organi - Ijro etuvchi direktsiyasi tomonidan amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vaziri Pensiya jamg'armasi boshqaruvi raisi hisoblanar edi. Pensiya ta'minoti tizimidagi ma'muriy va iqtisodiy islohotlarni izchil amalga oshirish doirasida Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 15 noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi pensiya ta'minoti tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 444-sonli Qarori bilan "pensiya ta'minoti tizimidagi boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha majburiy badallar to'liq yig'ilishini ko'paytirish, amaldagi boshqaruv tuzilmalarini qisqartirish hamda pensiyalar va nafaqalar to'lashga yo'naltiriladigan mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshirish maqsadida" 2001 yil 1 yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasi O'zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga aylantirildi. Ushbu qaror bilan:

- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga mablag' ajratish va badallar miqdori hamda ularni to'lash muddatlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanishi;

- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy to'lovlar davlat soliqlari va yig'imlariga tenglashtirilishi;

- budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari va xarajatlari har yili O'zbekiston Respublikasining yig'ma budjeti tarkibiga kiritilishi;

- Pensiya jamg'armasiga mablag' to'plash va mablag' to'liq tushishi ustidan nazorat qilish funksiyasi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga yuklatilishi belgilab qo'yildi.

Natijada Ijtimoiy ta'minot vazirligi huzuridagi Pensiya jamg'armasining markaziy apparati (ijroiya direksiya), hududiy bo'linmalari, tuman (shahar) bo'limlari 2001 yil 1 yanvardan boshlab tugatildi, tugatilgan Pensiya jamg'armasi markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarining mol-mulki, asosiy va aylanma mablag'lari vazirlik markaziy apparati va uning hududiy tuzilmalarining balansiga qabul qilindi. Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarish bo'yicha funksiyalar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vaziri va Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining rahbarlari budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larini boshqaruvchilar hisoblanishi belgilab qo'yildi. Shuningdek, Pensiya jamg'armasi mablag'lari kelib tushishi va ulardan maqsadli foydalanish uchun jamoat nazorati funksiyasi "Nuroni" jamg'armasi huzuridagi "Nazorat kengashi" jamoat komissiyasiga yuklatildi.

Keyinchalik, ijtimoiy ta'minot tizimida davlat kafolatlarini amalga oshirish hamda pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to'lashga yo'naltiriladigan mablag'larning maqsadli va aniq sarflanishi ustidan nazoratni kuchaytirish, shuningdek budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasini samarali boshqarishni tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 noyabrdagi

“Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Qarori bilan 2005 yil 1 yanvardan boshlab O‘zbekiston Respublikasining budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasiga aylantirildi.

Quyidagilar budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining asosiy vazifalari etib belgilandi:

- fuqarolarning davlat tomonidan kafolatlangan ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy sug‘urtaga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish;
- majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to‘lovlarni budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining yagona yig‘ma hisobraqamida jamlash;
- 2005 yil 1 yanvardan boshlab pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarni to‘lash xarajatlarini moliyalashtirish;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga mablag‘larning to‘liq tushishi va o‘z vaqtida sarflanishi ustidan nazoratni ta‘minlash.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining daromadlari va xarajatlari O‘zbekiston Respublikasining yig‘ma budjeti tarkibiga kiritildi. Davlat soliq qo‘mitasi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga majburiy ajratmalar, badallar va to‘lovlarni yig‘ish va ularning to‘liq tushishini nazorat qilish funksiyalarini amalga oshiradigan, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi pensiyalar, nafaqalar va kompensatsiyalarning o‘z vaqtida tayinlanishi va to‘lanishi, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va muassasalarning davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha xarajatlarning belgilangan tartibda moliyalashtirilishi ustidan nazoratini ta‘minlaydigan bo‘ldi.

Pensiya jamg‘armasining barcha darajalardagi hisobraqamlaridagi 2004 yil 31 dekabr holatiga ko‘ra qoldiq mablag‘lari O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hisobraqamiga o‘tkazildi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda olib borilgan ma‘muriy va iqtisodiy islohotlar doirasida Pensiya ta‘minoti tizimining tashkiliy-huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga qaratilgan qator chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xususan, “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq hamda pensiya ta’minoti tizimining tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish, pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasidan o‘z vaqtida moliyalashtirish hamda ularni to‘liq hajmda to‘lash, shuningdek respublika fuqarolarining pensiya ta’minotiga yo‘naltiriladigan mablag‘lardan maqsadli foydalanilishi ustidan nazoratni kuchaytirish maqsadida 2009 yil 30 dekabrda “Fuqarolarning pensiya ta’minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-4161-sonli O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Ushbu farmon bilan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzurida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi va uning viloyatlar, shaharlar va tumanlarda bo‘linmalari tashkil etildi. Natijada 2010 yilning 1 yanvaridan boshlab pensiyalar, shuningdek ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlarni tayinlash, moliyalashtirish, ularning to‘lanishini hisobga olish va monitoringini yuritish Pensiya jamg‘armasining tegishli hududiy bo‘linmalari tomonidan amalga oshiriladigan bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 30 dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PQ-1252-sonli Qarori bilan pensiya ta’minoti tizimini boshqarishni tashkil qilishni takomillashtirish va uning faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda uning hududiy boshqarmalari va bo‘limlari O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ijtimoiy ta’minot organlarining huquqiy vorislari (fuqarolarning pensiya ta’minotini amalga oshirish bilan bog‘liq huquqlar va majburiyatlar qismida) bo‘lib hisoblanishlari belgilandi.

Yuqoridagi qarorga muvofiq, Pensiya jamg‘armasining ijro etuvchi direktori Pensiya jamg‘armasi Kuzatuvchilar kengashining taqdimnomasi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tayinlanadi, Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi apparati hamda uning hududiy boshqarmalari va

bo'limlarining xodimlariga moliya organlari xodimlari uchun belgilangan mehnat haqi shartlari tatbiq etiladi.

Nihoyat, Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom tasdiqlandi va Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjat sifatida amalga kiritildi. Ushbu nizom Jamg'armaning asosiy vazifalari va funktsiyalarini, Jamg'arma daromadlarini shakllantirish manbalari va tartibini, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish tartibini, Jamg'arma daromatlari va xarajatlari prognozini shakllantirish tartiblarini, Jamg'armani boshqarish va faoliyatini faoliyatini tashkil etish masalalarini belgilab berdi.

Nizomga muvofiq, Jamg'arma idoraviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga qarashli hamda o'z faoliyati to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining birinchi o'rinbosari - Moliya vaziriga, Jamg'armaning Kuzatuv kengashi raisiga hisob beradi. Jamg'arma tizimiga quyidagi tarkibiy tuzilmalar kiradi:

- Jamg'armaning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi boshqarmalari;
- Jamg'armaning tuman (shahar) bo'limlari;
- Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi;
- bosh, tuman, tumanlararo, shahar va ixtisoslashtirilgan tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari.

Jamg'arma ijro etuvchi apparatining, uning hududiy boshqarmalari, tuman (shahar) bo'limlari, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, tibbiy-mehnat ekspertizasi xizmatlari ta'minoti respublika budjeti mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Jamg'arma hamda uning hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari yuridik shaxs hisoblanadi, mustaqil balansga, banklarda

1.2-jadval

Pensiya ta'minoti tizimining huquqiy asosini tashkil qiluvchi asosiy hujjatlar¹²

№	Xujjat nomi
1	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2	O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni (1993 yil 3 sentyabr №938-XII), bir qator o'zgarishlar va qo'shimchalar bilan
3	«Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida»gi qonun O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 11 iyuldagi 162-son Qonuni.
4	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (1994 yil 10 yanvar 6-sonli)
5	O'zbekiston Respublikasining "Budjet kodeksi" T. 2013 yil 26-dekabr
6	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasini boshqarishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori (2004 yil 21 oktyabr 490-sonli)
7	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni (2009 yil 30 dekabr, PF-4161-sonli)
8	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori (2009 yil 30 dekabr, PQ-1252-sonli)
9	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori (2010 yil 19 fevral, 30-sonli)
10	"O'zbekiston Respublikasining 2015 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Prezident qarori. PQ-2270-son. 4.12.2014.
11	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasida davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori (2011 yil 8 sentyabr, 252-sonli)
12	O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2011 yil 14 ktyabr, 63-son "Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi hamda pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to'ldirish qoidalari to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" gi buyrug'i
13	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 21 noyabr, PF-4672-sonli "Ish haqi, pensiyalar, stipendiyalar va nafaqalar miqdorini oshirish to'g'risida"gi Farmoni
14	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 24 dekabrda 361-son "1941 — 1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
15	O'zbekiston Respublikasi moliya vazirining 2015 yil 30 yanvar,6-son "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiya, nafaqa va boshqa to'lovlarni to'lashni tashkil etish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" gi buyrug'i
16	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015 yil 19 oktyabrda 297-son "2015 — 2017 yillarda pensiya ta'minotining yagona idoralararo integratsiyalashtirilgan axborot tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori
17	O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 22 fevralda 46-son "Chet elda ishlayotgan o'zbekiston respublikasi fuqarolari hamda ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan shaxslarning ayrim toifalari tomonidan o'zbekiston respublikasi moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lash tartibini, shuningdek ularning pensiyani hisoblash uchun olinadigan ish stajini va ish haqi miqdorini hisobga olish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi Qarori va boshqalar

¹² O'zbekiston Respublikasi qonun xujjatlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi. 1992-2016 yy. //http://www.lex.uz

hisobraqamlariga, O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbi tasviri tushirilgan muhrga, shuningdek tegishli muhr va shtamlarga ega bo'ladi. Yuqorida keltirilgan 1.2-jadvalda O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minoti bilan bog'liq asosiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar tarkibi keltirilgan.

Yuqorida ko'rib o'tilgan barcha qonuniy-huquqiy va me'yoriy hujjatlar davlat pensiya ta'minotini boshqarish va samarali tashkil etish uchun mas'ul bo'lgan davlat organlarining faoliyatini tartibga solishning huquqiy asoslarini tashkil etadi. Bundan tashqari, pensiya ta'minotini tashkil etish, barcha turdagi pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarni hisoblash va to'lash, Pensiya jamg'armasi daromadlarini prognozashtirish va xarajatlarini amalga oshirish, pensiya ta'minoti bo'yicha moliyaviy nazoratni tashkil etish va o'tkazish kabi faoliyatlarni tartibga soluvchi bir qator me'yoriy hujjatlar mavjud bo'lib, ular pensiya ta'minoti borasidagi davlat siyosatining olib borilishiga monand ravishda o'zgarib va takomillashib bormoqda.

1.3 O'zbekiston Respublikasida pensiya ta'minotini moliyalashtirish manbalari

O'zbekistonda davlat pensiya ta'minoti tizimida davlat pensiyalari pensiya yoshiga yetgan jismoniy shaxslarga (yoshga doir pensiya), nogironlik bo'yicha va boquvchisini yo'qotish bo'yicha tayinlanadi. Bir vaqtning o'zida, shu o'rinda pensiya tizimining mamlakat miqyosidagi umumiy moliyaviy taqsimot munosabatlarining mahsuli ekanligi ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim. Shuningdek, pensiya tizimi o'zida katta ijtimoiy yukni ham mujassam etadi. Uning mablag'lari xo'jalik yurituvchi barcha subyektlarning, ya'ni korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, firmalar, uy xo'jaliklari va davlat korxonalarining daromadlarini qayta taqsimlash jarayonida tarkib topadi.

Shuni ham alohida ta'kidlash lozimki, pensiya tizimi har bir mamlakatda shu mamlakat aholisini ijtimoiy himoya qilishning muhim komponenti hisoblanadi. Bu tizim faol mehnatga layoqatli aholi qatlami bilan

o`zining qarilik yoshiga ko`ra boshqa ishlash salohiyatiga ega bo`lmagan, lekin oldin sug`urta badallarini to`lash orqali pensiya yoshidagilarni qo`llab-quvvatlagan aholi qatlami o`rtasidagi ijtimoiy shartnomaga asoslangan. Ana shunga qarab turib pensiya tizimining quyidagi funksiyalarini aniqlashimiz mumkin:

- qarilik vaqtida aholini qashshoqlikdan himoya qilish;
- mehnat faoliyatiga yakun yasalgandan so`ng kafolatlangan daromadni taqdim etish;
- inflatsiya natijasida aholi turmush darajasining kelgusida pasayishidan ana shu daromadni himoya qilish.

Ho`jalik yurituvchi subyektlar va fuqarolarning majburiy va ixtiyoriy sug`urta badallari, davlatning moliyaviy ishtiroki asosida shakllanuvchi va ma'lum bir ijtimoiy tavakkalchilikka muvofiq sug`urtalangan aholi qatlamlariga sug`urta to`lovlarini amalga oshirish va ularni ijtimoiy himoyalash uchun mo`ljallangan mustaqil pul jamg`armalariga pensiya jamg`armasi deyiladi.

Ushbu ta`rifdan ko`rinib turibdiki, pensiya tizimi asosini tashkil etuvchi pensiya jamg`armalari uchun quyidagi belgilar xosdir:

- pensiya jamg`armasi daromad manbalarining aniq belgilanganligi;
- pensiya jamg`armasidagi mablag`larning oldindan belgilangan tartibga muvofiq qat'iy maqsadli ishlatilishi;
- pensiya jamg`armasi mablag`larini shakllantirish va ulardan foydalanish muddatlarining bir-biriga o`zaro muvofiq kelmasligi;
- pensiya jamg`armasining mustaqil moliya-kredit tashkiloti ekanligi;
- pensiya jamg`armasining budjetdan tashqari fondligi;
- pensiya jamg`armasi ijtimoiy sug`urtaning muhim elementi ekanligi.


O`zbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya ta`minoti tizimini mablag` bilan ta`minlashning bir necha manbalari mavjud:

1. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi mablag`lari. O`zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg`armasi fuqarolarning davlat pensiya

ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi (1.5-rasm):

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar.



1.5-rasm. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari¹³

Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'zni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari,

¹³ O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksi. 10-bob, 53-modda asosida muallif tomonidan tuzildi.

fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat xo'jaligi), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararning o'rnini qoplash uchun to'lanadigan nazarda tutilgan mablag'lar, vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

2. Davlat budjeti mablag'lari. O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 5-modda bilan belgilangan harbiy xizmatchilarning, ichki ishlar organlarining boshliqlar va oddiy xodimlar tarkibidan bo'lgan shaxslarining, sudyalarning va prokuratura organlari darajali unvonlarga (harbiy unvonlarga) ega bo'lgan xodimlarining pensiya ta'minoti shartlari, normalari va tartibi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Bu xarajatlar "O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi pensionerlariga pensiyalar to'lash bo'yicha vaqtincha tartib (Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 22 dekabrda 857-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)ga ko'ra, bu toifadagi fuqarolarga pensiyalar va bir martalik nafaqalarni to'lash Ichki ishlar organlari tomonidan davlat budjetining respublika budjeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

3. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti orqali jamlanadigan mablag'lar. "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga asosan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;

- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas.

Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga majburiy oylik badallar miqdori xodimning hisoblangan ish haqi (daromadi)ning 1 foizi miqdorida belgilangan. Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarni hisoblash maqsadi uchun xodimning ish haqi (daromadi) deb, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortilishi lozim bo'lgan jami daromad tushuniladi. Mehnat shartnomasi bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshiruvchi barcha fuqarolar (shu jumladan ishlayotgan pensionerlar) jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini oluvchi sifatida jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchilar hisoblanadi.

"Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunining 11-moddasiga asosan, jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'lari Xalq bankida shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni jamlash yo'li bilan shakllantiriladi.

Shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida mablag'larni shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat:

- jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari;
- jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari;
- shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari mablag'lariga hisoblab chiqarilgan foizlar;
- qonun hujjatlariga zid bo'lmagan boshqa mablag'lar.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlari to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan jamg'arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog'liq bo'lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanish mumkin emas.

Xalq banki jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larining alohida hisobini yuritadi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini ko'paytirish hamda ularni pul qadrsizlanishidan himoya etish maqsadida bunday mablag'lardan investitsiya va kredit resurslari sifatida, shuningdek moliyaviy vositalarga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'laridan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda Xalq banki tomonidan amalga oshiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimi mablag'larini moliyaviy vositalarga joylashtirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotini olish huquqiga ega. Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti — fuqarolarni shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan davlat pensiyasiga qo'shimcha ravishda pul mablag'lari bilan ta'minlashdir. Jamg'arib boriladigan ixtiyoriy pensiya badallari - shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga ixtiyoriylik asosida kiritiladigan pul mablag'lari hisoblanadi. Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari — shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'iga

majburiy tartibda kiritiladigan pul mablagʻlaridan iborat. Jamgʻarib boriladigan pensiya tizimida hisobga olinayotganda fuqarolarga Xalq banki umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamgʻarib boriladigan pensiya hisobvaraqlari ochadi.

I-bob boʻyicha xulosa

Birinchi bob boʻyicha xulosa qilib shuni aytish mumkin, Pensiya tizimi aholini ijtimoiy himoyalash tizimining tarkibiy qismi hisoblanib, u davlatning ijtimoiy siyosatida muhim oʻrin egallaydi. Pensiya tizimi oldida quyidagi muhim maqsadlar turadi: fuqorolarni keksalik chogʻida kambagʻallikdan himoyalash, mehnat faoliyatining tugashi bilan pensiyaga chiqish oldidan ish haqi miqdoriga mutanosib tarzda belgilangan muayyan miqdordagi kafolatlangan daromadni taʼminlash, bu daromaddan kelajakda turmush darajasining pasayishidan himoalanish tarzida foydalanish.

Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasining daromadlari quyidagilar hisobidan shakllantiriladi: yagona ijtimoiy toʻlovning belgilangan miqdordagi tushumlari, fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga sugʻurta badallari, budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasiga majburiy ajratmalar, boshqa daromadlar.

Oʻzbekiston Respublikasida fuqarolarning pensiya taʼminoti tizimini mablagʻ bilan taʼminlashning bir necha manbalari mavjud, bular Oʻzbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi mablagʻlari, davlat budjeti mablagʻlari hamda Jamgʻarib boriladigan pensiya taʼminoti orqali jamlanadigan mablagʻlar.

II-BOB. O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PENSIYA JAMG‘ARMALARI MABLAG‘LARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARDAN FOYDALANISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI

2.1. Davlat pensiya ta‘minoti moliyaviy resurslarining shakllanishi holatining tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat budjeti bilan bir qatorda, davlatning budjetdan tashqari maqsadli fondlarining mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishdagi ahamiyati yanada ortib bormoqda. Dastlab ayrim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni aniq manbalar bilan ta‘minlash maqsadida davlat budjeti tarkibidan ma‘lum maqsadlarga mo‘ljallangan budjetdan tashqari maqsadli fondlar shakllangan. Masalan, davlat budjeti tarkibiga kiruvchi “ijtimoiy sug‘urta fondi” negizida budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuzilgan. Bu va shu kabi boshqa fondlar davlat budjetidan ajralib chiqqani bois adabiyotlarda “Nobudjet fondlar” yoki “Budjetdan tashqari fondlar” deb yuritilgan. Shuningdek, yangi Budget Kodeksining qabul qilinishi va amalga kiritilishigacha bo‘lgan oxirgi o‘n yilliklar davomida “Budget tizimi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 20-moddasi bilan bir qator jamg‘armalarning davlat budjetida konsolidatsiyalanishi (jamlanishi) belgilab berildi va ular budjet nazariyasi va amaliyotida “davlat maqsadli jamg‘armalari” degan umumiy nom oldi.

Bugungi kunda jamlanma budjet tarkibidagi davlat maqsadli jamg‘armalari qatoriga Budget Kodeksining 36-moddasida nazarda tutilgan O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ham kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti, ijtimoiy nafaqalar to‘lash, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar bo‘yicha xarajatlarni

moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi.

Hozirgi kunda respublika ijtimoiy hayotidagi asosiy moliyaviy institut - budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi iqtisodiyotning tayanch bo'g'inidir. Aholining kam ta'minlangan, iqtisodiy yordamga muhtoj qatlamini ijtimoiy himoya qilishdek mas'uliyatni o'zining asosiy maqsadi qilib olgan bu jamg'armaning bugungi kundagi ahamiyati yuksakdir.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari quyidagilar hisobiga shakllantiriladi:

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning, yuridik shaxs tuzmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning sug'urta badallari;

- fuqarolarning majburiy sug'urta badallari;

- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy ravishda to'laydigan sug'urta badallari;

- korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning belgilangan tartibda ajratiladigan majburiy ajratmalari;

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tayinlangan mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiya to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'lar;

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasiga muvofiq, muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun Aholini ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasidan o'tkaziladigan mablag'lar;

- “Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga muvofiq tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan korxonalar, muassasalar va tashkilotlar mablag'lari;

– hisoblangan jarimalar summalari (qonun hujjatlariga muvofiq soliq organlarini rivojlantirish Jamg‘armasiga undiriladigan summalardan tashqari), sug‘urta badallari va ajratmalarning o‘z vaqtida to‘lanmaganligi uchun penyalar;

– yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari va qonunchilik bilan ta’qiqlanmagan boshqa daromadlar.

Yuqorida nomi keltirilgan Pensiya jamg‘armasiga sug‘urta badallarining miqdori to‘lovchilarga soliq organlari tomonidan etkaziladi va Pensiya fondiga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar soliqlar va yig‘imlarga tenglashtiriladi. Ish haqi fondidan ajratmalar va sug‘urta badallari bo‘yicha hisobotlar har chorakda soliq inspeksiyasiga topshiriladi.

2.1-jadval ma’lumotlaridan ko‘rish mumkinki, ya’ni budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga kelib tushadigan ish beruvchilardan majburiy ajratmalar ularning soliq yukini kamaytirish bilan bog‘liq siyosati jarayonida, hamda ortirilgan mablag‘larni oborotiga qushib, shu yul bilan daromadlarini oshirishi va ish urinlarini shakllantirishi bilan bog‘lanadi. Ishlovchilar va yuridik shahslar tovar oborotidan olinadigan majburiy me’yorlar ulushi usish sur’atiga egadir.

Pensiya jamg‘armasi daromad manbalarining shakllanishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 19 fevraldagi 30-son qaroriga asosan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi to‘g‘risida”gi Nizom asosida olib boriladi. Pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanishi nazorati Davlat Soliq Qo‘mitasiga yuklangan.

Pensiya jamg‘armasi mablag‘larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibi maxsus me’yoriy hujjat bilan belgilangan. Amaldagi qonunchilikka muvofiq Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasini shakllantirish manbalari quyidagilardan iborat¹⁴:

a) majburiy to‘lovlar va badallar:

- belgilangan miqdorlardagi yagona ijtimoiy to‘lov tushumlari (Yagona ijtimoiy to‘lovning 24,8 (14,8) % li to‘lovi) (2.2-jadval);

¹⁴ “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. 1993 yil 3 sentyabr, 938-XII-son. (keyingi yillardagi o‘zgarishlarni hisobga olgan holda)

2.1- jadval

**O‘zbekiston Respublikasi budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga
to‘lanadigan majburiy to‘lov tariflari dinamikasi (%)¹⁵**

Yillar	Pensiya jamg‘armasiga ish beruvchilarning yagona ijtimoiy to‘lovi	Fuqarolarning majburiy sugurta badali	Tovar (ish, xizmatlar) qiymatidan majburiy ajratmalar
2001	40	2,5	0,7
2002	40	2,5	0,7
2003	37,2	2,5	0,7
2004	33	2,5	0,7
2005	31	2,5	0,7
2006	25	2,5	0,7
2007	24	2,5	0,7
2008	24	2,5	1
2009	24	3,5	1
2010	25	4	1,5
2011	25	4,5	1,6
2012	25	5,5	1,6
2013	25	6	1,6
2014	25	6,5	1,6
2015	25 (15 ¹⁶)	7,0	1,6
2016	25 (15 ¹⁷)	7,5	1,6
2017	25 (15 ¹⁸)	8,0	1,6

- alohida yuridik shaxslarning ijtimoiy sug‘urta badallari;
- fuqarolarning sug‘urta badallari;
- jismoniy shaxslar ayrim toifalarining sug‘urta badallari;

¹⁵ Ilmiy va me‘yoriy qonunchilikni o‘rgangan holda muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi

¹⁶ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014 yil 4 dekabrda PQ-2270-sonli “2015 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori)

¹⁷ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 22 dekabrda PQ-2455-sonli “2016 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori)

¹⁸ Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli “2017 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori)

- majburiy ajratmalar;

b) boshqa to'lovlar:

- mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligi oqibatida nogiron bo'lganlarga pensiyalar to'lash xarajatlarini qoplash uchun regressiv talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolardan undiriladigan mablag'larning 85 foizi;

- texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga muddatidan oldin tayinlanganyoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash uchun o'tkaziladigan O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining Bandlikka ko'maklashish Fondi mablag'lari;

- dehqon xo'jaliklari a'zolarining ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari;

- "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan pensiya olish huquqiga ega bo'lgan kamida yigirma yillik ish staji bo'lgan ayollar ellik to'rt yoshga to'lganda tayinlangan imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobiga o'tkaziladigan yuridik shaxslar mablag'lari;

- hisoblangan jarimalar summasining bir qismi hamda majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun penyalari (qonun hujjatlariga muvofiq davlat soliq xizmati organlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy-texnik ta'minlash maxsus Fondiga hamda Fond xodimlarini ijtimoiy rivojlantirish va moddiy rag'batlantirish Fondiga undiriladigan summalardan tashqari);

- yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkati), fermer va dehqon xo'jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoki

**2017-yilda ish beruvchilarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov
STAVKASI¹⁹**

Ko‘rsatkichlar	Ajratmalar miqdori, %da
Yuridik shaxslar mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi	25*
Mikrofirma va kichik korxonalar, fermer xo‘jaliklari uchun yagona ijtimoiy to‘lov stavkasi	15**

**) Yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lov summasi davlat maqsadli Fondlari hamda Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi o‘rtasida belgilangan tartibga muvofiq quyidagi miqdorlarda taqsimlanadi:*

<i>Budjetdan tashqari Pensiya Fondi</i>	<i>24,8</i>
<i>Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat Fondsi</i>	<i>0,1</i>
<i>Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi</i>	<i>0,1</i>

<i>**Budjetdan tashqari Pensiya Fondi</i>	<i>14,8</i>
<i>Ish bilan ta‘minlashga ko‘maklashish davlat Fondsi</i>	<i>0,1</i>
<i>Kasaba uyushmalari federatsiyasi Kengashi</i>	<i>0,1</i>

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 27 dekabrda PQ-2699-sonli “2017 yil uchun O‘zbekiston Respublikasining asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to‘g‘risidagi” Qarori.

sogʻligʻiga boshqacha shikast etkazilgan xodimga etkazilgan zararni qoplash uchun toʻlanadigan summalar;

- qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar, shu jumladan Davlat budjeti mablagʻlari va ixtiyoriy badallar.

Majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarni oʻtkazish Fond daromadlarining belgilangan tasniflariga muvofiq tushumlarning har bir turi boʻyicha Fondning banklardagi tegishli hisob raqamlari boʻyicha amalga oshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq qoʻmitasi va davlat soliq xizmatining hududiy organlari:

- manbalar turlari boʻyicha Fondga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarning toʻgʻri hisoblanishi, toʻliqligi va oʻz vaqtida toʻlanishi nazorat qilinishini;
- manbalar turlari va toʻlovchilar boʻyicha Fondga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlar hisobi yuritilishini;
- yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan Fondga majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlar toʻgʻri hisoblanishini, shuningdek Fond bilan oʻzaro hisob-kitoblarning holati tekshirilishini;
- qonun hujjatlariga muvofiq majburiy toʻlovlar, badallar va boshqa toʻlovlarni hisoblash tartibi va toʻlash muddatlari buzilganligi uchun yuridik va jismoniy shaxslarga nisbatan moliyaviy va maʼmuriy javobgarlik choralari qoʻllanilishini;
- badallarning shaxslar boʻyicha hisobini amalga oshirish va mehnat daftarchalarini yuritish uchun har chorakda Fondga yuridik shaxs boʻlmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shugʻullanadigan shaxslar va dehqon xoʻjaliklari aʼzolari tomonidan toʻlangan badallarning miqdorlari toʻgʻrisidagi maʼlumotlar taqdim etilishini taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Davlat soliq Qoʻmitasi Fondning ijro etuvchi apparatiga:

- tushgan majburiy to'lovlar, badallar va to'lovlar to'g'risidagi, Fondga majburiy ajratmalar, badallar va boshqa to'lovlar turlari bo'yicha qarzlarni to'g'risidagi tezkor hisobotni har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 10-kunigacha;
- majburiy to'lovlar, badallar va boshqa to'lovlarni hisoblash va to'lash to'g'risidagi hisobotni yuridik shaxslar tomonidan choraklik va yillik hisobot taqdim etilgandan keyin 15 kun mobaynida taqdim etadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining daromadlari²⁰:

- yagona ijtimoiy to'lovning belgilangan miqdordagi tushumlari;
- fuqarolarning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalar;
- boshqa daromadlar hisobidan shakllantiriladi.

O'zbekiston Prezidentining 2017 yil 13 martdagi "Pensiya va nafaqalarni to'lash mexanizmini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2826-son qaroriga muvofiq, endilikda Xalq banki butun respublika bo'yicha pensiya va nafaqalarni to'lash bo'yicha yagona vakolatli bankka aylandi.

Boshqa daromadlarga mehnatda mayib bo'lganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik tufayli tayinlangan nogironlik pensiyalarini to'lash xarajatlarining o'rnini qoplash uchun taqdim etiladigan regress talablar (da'volar) bo'yicha ish beruvchilar va fuqarolar tomonidan o'rni qoplanadigan mablag'lar tushumining bir qismi, O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasining muddatidan oldin tayinlangan yoshga doir pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, yuridik shaxslarning imtiyozli pensiyalarni to'lash xarajatlarini qoplash hisobidan kiritiladigan mablag'lari, fuqarolarning ixtiyoriy tartibda to'lanadigan sug'urta badallari, majburiy to'lovlar, badallar o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun hisoblangan jarimalar va penyalar summasining bir qismi, mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda mayib bo'lgan, kasb kasalligiga chalingan yoxud sog'lig'iga

²⁰ O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y., 52-I-son) 2013 yil 26-dekabrda qabul qilingan

2.3-jadval

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi
daromadlari tarkibi va tuzilishi²¹**

Ko‘rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil (prognoz)	
	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%	mlrd. so‘m	%
Daromadlar	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0
Yil boshiga qoldiq	602,2	8,8	1067,3	8,2	2592,0	15,7	2568,3	14,2	2282,0	11,7
Ish haqi fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan tushumlar	5907,4	51,7	7299,5	56,1	8324,2	50,3	9474,0	52,3	10226,0	52,4
Fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari	1482,7	14,4	1877,2	14,4	2463,8	14,9	3235,0	17,9	3993,9	20,5
Mahsulot sotish hajmidan majburiy ajratmalar	1591,3	15,4	1933,0	14,9	2063,8	12,5	1527,0	8,4	1429,7	7,3
Boshqa daromadlar	718,5	9,7	836,7	6,4	1113,1	6,7	1291,0	7,2	1555,0	8,0
Soliqsiz tushumlar	-	-	-	-	-	-	18,0	0,1	18,0	0,09

²¹O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

boshqacha shikast etkazilgan xodimga yuridik shaxs tugatilganda, qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi), fermer va dehqonxo‘jaligi qayta tashkil etilganda yoki tugatilganda zararining o‘rnini qoplash uchun to‘lanadigan nazarda tutilgan mablag‘lar, vaqtinchalik bo‘sh turgan mablag‘larni joylashtirishdan olingan daromadlar va qonun hujjatlariga muvofiq boshqa manbalar kiradi.

2.3-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, Pensiya jamg‘armasining daromadlari shakllantirishda muhim o‘rinni yuridik shaxslarning mehnatga haq to‘lash fondidan yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar egallaydi. Yagona ijtimoiy to‘lovdan ajratmalar 2013 yilga nazar soladigan bo‘lsak jami daromadlarga nisbatan 57,3 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib 52,4 foiz bo‘lishi kutilmoqda. Bunda pasayish tendensiyasini ko‘rishimiz mumkin. Fuqarolarning ish haqidan majburiy sug‘urta badallari esa o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lmoqda. Ya’ni, 2013 yilda jami daromadlarga nisbatan ushbu daromad turining ulushi 1482,7 mlrd.so‘mni ulushi 14,4 foizga teng bo‘lsa, 2017 yilga kelib 3993,9 mlrd.so‘mga ya’ni 20,5 foizga o‘sishi ko‘tilmoqda. Boshqa daromadlar ulushiga ham e’tibor beradigan bo‘lsak yildan-yilga o‘sayotganligini tahlil qilishimiz mumkin.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, mamlakatda olib borilayotgan islohotlar natijasida pensiya tizimi sohasida ham bir muncha ijobiy o‘zgarishlarga erishildi. Qonunchiligimizga bir qancha o‘zgarishlar amalga oshirildi va pensiya jamg‘armasi daromadlarining shakllanish manbalari aniq va ravshan qilib qo‘yildi. Natijada, 2011 yildan boshlab Pensiya jamg‘armasi profitsit bilan ijro qilina boshlandi. Daromad manbalari tarkibida korxona va tashkilotlarning ish haqi jamg‘armasidan to‘laydigan ajratmasi eng yuqori ulushga ega bo‘lishi pensiya jamg‘armasi daromad manbalarining oshishiga sabab bo‘lmoqda. Bu ko‘rsatkich, yuqoridagi tahlil ma’lumotlariga asosan yildan-yilga jami daromad tarkibidagi ulushi kamayib bormoqda. Shu sababli, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni, ya’ni kasanachilikni, duradgorchilikni va boshqa kichik biznesga alohida e’tibor berib kelinmoqda. Daromad manbalarini tarkibida ishchilar ish haqisidan ajratmaning foiz stavkasi yildan-yilga o‘smoqda, ya’ni bu

ko'rsatkich 2008 yilda 2,5 foizni, 2015 yilda esa bu ko'rsatkich 7,0 foizni, 2016 yilda 7,5 foizni, 2017 yilda 8,0 foizni tashkil qilmoqda. O'rtacha oylik ish haqining ham yildan-yilga oshishi ham daromad manbalarining oshishiga sabab bo'lmoqda. Pensiya jamg'armasi daromadlarini shakllantirishda yuz berayotgan muammolarni bartaraf etish hamda daromadlarining o'z vaqtida korxona va tashkilotlar tomonidan o'z vaqtida to'lanmayotganligini bartaraf etish yo'nalishlarini aniqlash kerak. Bunga bir necha omillar sabab bo'ldi va yanada pensiya tizimi faoliyatini takomillashtirish maqsadida 2010 yildan Pensiya jamg'armasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi o'tkazildi va ijrosi G'aznachilik organlar orqali amalga oshirila boshlandi.

2.2. Davlat pensiya ta'minoti moliyaviy resurslaridan foydalanish holatining tahlili

O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan pensiya qonunchiligiga muvofiq, pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlarni moliyalashtirish budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Jamg'arma mablag'lari quyidagi toifadagi fuqarolarga ko'rsatilgan turdagi pensiya va nafaqalarni to'lash uchun sarflanadi (2.1-rasm):

a) ishlamaydigan fuqarolarga:


- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;
- davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar;

- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

b) ishlaydigan fuqarolarga:

- davlat pensiyalarining barcha turlari;
- dafn marosimi uchun nafaqalar;

- 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaning ota-onalaridan biriga (vasiyga, homiyga) bir oyda qo'shimcha dam olish kuni uchun to'lovlar;
- qonun hujjatlariga muvofiq Jamg'arma mablag'laridan moliyalashtiriladigan kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar.



2.1-rasm. Jamg'arma mablag'larining sarflanishi²²

Ishlaydigan va ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarining barcha turlari, ya'ni yoshga doir pensiyalar, nogironlik pensiyalari, boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari to'lanadi.

Yoshga doir pensiyalar. Yoshga doir pensiya olish huquqiga erkaklar - 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda, ayollar - 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar. Pensiya

²² O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi Nizom asosida muallif tomonidan tuzildi.

tayinlash uchun etarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar kamida 7 yil ish staji (2016 yil 1-iyuldan boshlab ungacha bo'lgan davrda 5 yil) mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari. Nogironlik pensiyalari belgilangan tartibda I va II guruh nogironlari deb topilgan shaxslarga tayinlanadi. Sog'lig'ini yoki mehnat qobiliyatini yo'qotganlik darajasiga qarab, nogironlikning uch guruhi aniqlanadi.

Nogironlik sabablari va guruhlari, shuningdek nogironlik boshlangan vaqt va nogironlikning qancha muddatga belgilanishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan ular to'g'risidagi Nizom asosida ishlovchi tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan aniqlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyalari ish stajidan qat'i nazar, tayinlanadi.

Umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar (fuqaroning necha yoshda bo'lganida necha yillik zarur ish stajiga ega bo'lishi kerakligi Qonunda belgilangan) mavjud ish stajiga ega bo'lgan taqdirda tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Vafot etgan boquvchining qaramog'ida bo'lgan mehnatga qobiliyatsiz oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga ega bo'ladi. Bunda farzandlarga va qonunda belgilangan oilaning mehnatga qobiliyatsiz a'zolari hisoblanadigan boshqa a'zolariga pensiya ular boquvchining qaramog'ida turgan-turmaganidan qat'i nazar tayinlanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarni olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar, ularni tayinlash va to'lash tartiblari haqida "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun va boshqa qonunosti hujjatlarda batafsil berilgan.

Dafn marosimi uchun nafaqalar O'zbekiston Respublikasining "Dafn etish va dafn ishi to'g'risida"gi 2010 yil 27 dekabrda O'RQ-276-son Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 14 iyunda qabul qilingan 174-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu

hujjatga muvofiq, nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa – dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi. Nafaqa O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolarga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga beriladi.

Ushbu nafaqa:

- davlat pensiyasi oluvchi pensioner;
- davlat ijtimoiy nafaqasi oluvchi fuqaro;
- xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi;
- bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim);
- ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lmagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda tayinlanadi.

Ushbu ko'rsatilgan shaxslar vafot etganda nafaqa O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi. Faqatgina xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi vafot etganda nafaqa korxona, muassasa yoki tashkilot tomonidan Nizomda belgilangan tartibda tayinlanadi.

Ilgari pensioner vafot etgan taqdirda, uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining uch baravaridan oz bo'lmagan miqdorda dafn etish nafaqasi to'lanardi. 2014 yil 4 dekabrda "Soliq va budjet siyosatining 2015 yilga mo'ljallangan asosiy yo'nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun bilan kiritilgan o'zgartirishga muvofiq, 2015 yil 1 yanvardan e'tiboran dafn etish nafaqasi aniq miqdorda — eng kam oylik ish haqining 4 baravari miqdorida beriladi. Mazkur nafaqa pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilgan taqdirda olinadi.

Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi nizomning 26-moddasiga asosan, mazkur nafaqa pochtaning tarkibiy bo'linmasi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan taqdim etilgan vedomost va ariza beruvchining pasporti asosida naqd pul mablag'lari bilan to'lanadi.

Davlat pensiya ta'minotiga huquqi bo'lmagan keksa va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-son qarori bilan tasdiqlangan "Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom" asosida tayinlanadi va to'lanadi.

Bunday toifadagi fuqarolarga:

- yoshga doir nafaqa;
- nogironlik nafaqasi (bolalikdan nogironlardan tashqari);
- boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda tayinlanadi. Nafaqalarni tayinlash va to'lash O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yoshga doir nafaqalar ish stajiga ega bo'lmagan, shuningdek, 7 yildan kam ish staji mavjud bo'lib, yoshga doir pensiya tayinlash uchun etarli ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga: erkaklarga - 65 yoshga etganlarida, ayollarga — 60 yoshga etganlarida mehnatga layoqatli voyaga etgan farzandlari, qarindoshlari yoki O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga muvofiq ularni ta'minlashga majbur bo'lgan boshqa shaxslar bo'lmagan taqdirda tayinlanadi.

Nogironlik nafaqalari nogironlik sodir bo'lgan hollarda, yoshidan qat'i nazar, ish stajiga ega bo'lmagan I va II guruh nogironlarga faqat mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda tayinlanadi va to'lanadi. Mehnat faoliyatiga layoqati cheklanganligi darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirish (mehnatga layoqati doimiy yoki uzoq muddat yo'qotilganda) Pensiya jamg'armasi bo'limlari yo'llanmalari bo'yicha tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi “Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bo‘yicha davlat pensiyasi olish huquqiga ega bo‘lmagan shaxsning qaramog‘ida bo‘lgan oilaning mehnatga layoqatli bo‘lmagan a‘zolari boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi olish huquqiga egadirlar. Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasi vafot etganning oila a‘zolariga vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo‘lgan nafaqaga foiz nisbatida quyidagi miqdorlarda belgilanadi:


- oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a‘zosiga — nafaqaning 100 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz ikki a‘zosiga — nafaqaning 75 foizi;
- oilaning mehnatga layoqatsiz bir a‘zosiga — nafaqaning 50 foizi.

Boquvchisini yo‘qotganlik nafaqasini olish huquqiga ega bo‘lgan oila a‘zolarining barchasiga belgilangan miqdorda bitta umumiy nafaqa tayinlanadi. Oila a‘zosining talabiga ko‘ra uning nafaqadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to‘lanadi. Bunda tayinlangan nafaqaning umumiy miqdori oluvchilarning umumiy soniga bo‘linadi. Pensiya tayinlash uchun zarur bo‘lgan ish stajiga ega bo‘lmagan, nafaqalarning har xil turlarini olish huquqiga ega bo‘lgan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga ularning tanlovi bo‘yicha nafaqalarning bir turi tayinlanadi.

Ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar va kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlarni moliyalashtirish uchun Jamg‘armaning hududiy bo‘linmalari tomonidan G‘aznachilikning bo‘linmalarida hisobraqamlari ochiladi. Jamg‘armaning hududiy boshqarmalari to‘lov to‘lanadigan har bir oyning 15-kunigacha ishlamaydigan va ishlaydigan fuqarolarga pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya to‘lovlari va boshqa to‘lovlar to‘lash uchun mablag‘larga bo‘lgan ehtiyoj hajmini belgilaydi hamda Jamg‘armaning ijro etuvchi apparatiga buyurtmanoma taqdim etadi.

Jamg‘armaning ijro etuvchi apparati Jamg‘arma xarajatlarini O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilangan tartibda:

- joriy to‘lov oyining 15-kunigacha - o‘tgan oyning ehtiyoji hisob-kitobidan kelib chiqib 50 foiz miqdoridagi summani;



2.2-rasm. Pensiya jamg'armasi tomonidan pensiyalar va nafaqalarni to'lash tartibi²³


²³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi to'g'risidagi nizom asosida tuzildi.

– joriy to‘lov oyining 27-kunigacha - amaldagi ehtiyojning taqdim etilgan miqdoridan qolgan summani moliyalashtiradi.

Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari pensiyalar, ijtimoiy nafaqalar, kompensatsiya va boshqa to‘lovlar uchun mablag‘larni aloqa tashkilotlari va banklarning hisob raqamlariga o‘tkazadi. Jamg‘armaning tuman (shahar) bo‘limlari tashkilotlarning buyurtmanomalari bo‘yicha ishlaydigan pensionerlarga pensiyalar, dafn marosimi uchun nafaqalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarning ota-onalaridan biriga qo‘shimcha dam olish kunlari uchun va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa to‘lovlarni to‘lashga mablag‘larni moliyalashtiradi. Jamg‘armaning hisob raqamlaridan mablag‘larni qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan maqsadlarda o‘tkazish va vaqtincha olib qo‘yish taqiqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Pensiya jamg‘armasi tomonidan pensiyalar va nafaqalarni to‘lash tartibi quyidagi rasmdagi chizmada aks ettirilgan (2.2-rasm).

Bugungi kunda respublikamizda jami 3 mln dan ortiq pensiya oluvchilar mavjud bo‘lib, Respublikamiz aholisining 10% ni tashkil etmoqda va pensiya oluvchilarning asosiy qismi yoshga doir pensiya oluvchilar qismini tashkil etmoqda (2.3-rasm).



2.3-rasm. O‘zbekiston Respublikasida 2017 yil 1 yanvar holatida to‘lanayotgan pensiyalarning ulushi²⁴

²⁴ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika Qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.4-jadval

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari

Pensiya jamg'armasining xarajatlari tarkibi va tuzilishi²⁵

Ko'rsatkichlar	2013 yil		2014 yil		2015 yil		2016 yil		2017 yil (prognoz)	
	Mrld. so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda	Mrld. so'mda	Jami xarajat- larga nisbatan foizda
Xarajatlar jami	10302,1	100,0	13013,7	100,0	16557,0	100,0	18113,3	100,0	19505,1	100,0
Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	9097,9	88,3	11191,9	86,0	12838,1	77,5	14779,6	81,6	16629,9	85,2
Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari	317,4	3,1	426,6	3,3	474,8	2,8	484,3	2,7	534,5	2,7
Keksa yoshdagilar va ishlamaydigan fuqarolar uchun nafaqalar, dafn marosimlari uchun nafaqalar va boshqa to'lovlar	20,5	0,2	29,1	0,2	105,2	0,6	152,1	0,8	204,3	1,0
Boshqa xarajatlar	2,1	0,02	2,4	0,02	2,8	0,02	3,0	0,02	10,0	0,05
Yil oxirida qoldiq mablag'lar	864,2	8,4	1363,7	10,5	3136,1	18,9	2694,3	14,9	2126,4	11,0

²⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1887, PQ-2099, PQ-2270, PQ-2455, PQ-2699-sonli Qarorlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

2.4-jadvalda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2013-2017 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, undan ko'rinadiki, ya'ni Davlat Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, uning tutgan ulushi yil sayin umumiy xarajat qismida dinamik o'zgarish xususiyatiga egadir. Aksincha Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Davlat Pensiya jamg'armasining xarajatlari tizimining 2013-2017 yillar davomidagi dinamikasi keltirilgan bo'lib, undan ko'rinadiki, ya'ni davlat Pensiya jamg'armasi xarajatlari tizimida asosiy ulush ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari hissasiga to'g'ri kelib, 95 foiz Pensiya jamg'armasining xarajatlari ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari shaklida yo'naltiriladi. 2014 yilda jami xarajatlarini tarkibida ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lovlari xarajatlari 88.3%, 2015 yilda 86%, 2016 yilda 81.6 %, 2017 yilda esa bu xarajat turi bo'yicha 85.2% da rejalashtirilmogda. Pensiya jamg'armasida yil oxirida qoldiq mavjud bo'lib, uning ulushi o'sish xususiyatiga egadir. Agar 2013 yilda uning ulushi jami xarajatlarning tarkibida 8,4 % ni tashkil etgan bo'lsa 2016 yilga kelib 14,6% ni tashkil etgan. Bu esa oxirgi yillarda xukumatimiz tomonidan Davlat pensiya tizimini isloh qilish, uning mablag'laridan samarali foydalanish tizimidagi say xarakatlari natijasidir. 2017 yilgi byudjet prognoziga nazar soladigan bo'lsak, bu ko'rsatkich anchagina kamligini ko'rishimiz mumkin.

Buning asosiy sababi Pensiya tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bog'liq bo'lib, avval Pensiya fondidan to'lanadigan bir qator nafaqa va to'lovlarning davlat byudjetiga o'tkazilishi Pensiya fondiga pensiyalarni to'lash bilan bog'liq bo'lmagan bosimni birmuncha kamaytirdi.

Xususan Yunusobod tumani 2017 yil 1 yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar soni 42229 nafar kishi tashkil qilgan. 2016 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 41982 nafar kishi bo'lgan. 2017-yil 1-yanvar holatiga Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumani tomonidan 36763 kishiga

2.5-jadval

Yunosobod tumanida Pensiya jamg'armasidan pensiya va nafaqa oluvchilar²⁶

t/r	Pensiya va nafaqalar turlari va toifalari	2016-yil 1-yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar		2017-yil 1-yanvar holatiga pensiya va nafaqa oluvchilar	
		soni (kishi)	ulushi (%)	soni (kishi)	ulushi (%)
	Jami pensiya oluvchilar soni, jami	41982	100,0	42229	100
O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, pensiyalar					
1	Yoshga doir	36433	86,8	36763	87,1
2	Nogironlik	4215	10,0	4141	9,8
3	Boquvchisini yo'qotganlik	1224	2,9	1215	2,9
"Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga muvofiq, pensiyalar					
4	Pensiya oluvchilar soni	110	0,3	110	0,3
5	Shundan: Nogironlar soni	96	0,2	97	0,2
6	Boquvchisini yo'qotganlik	14	0,0	13	0,0
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 7 apreldagi 107-sonli Qaroriga muvofiq, nafaqalar					
7	Jami ijtimoiy nafaqalar	1420	3,4	1459	3,5
8	Shulardan: Nogironlar	1289	3,1	1311	3,1
9	65 yoshga etgan erkaklar va 60 yoshga etgan ayollar	67	0,2	77	0,2
10	Boquvchisini yo'qotganlik	64	0,2	71	0,2

²⁶ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi Yunosobod tumani bo'limi ma'lumotlari asosida

yoshga doir pensiya tayinlangan va to'langan. Jami pensiyalar va ijtimoiy nafaqalarda yoshga doir pensiyalar 84% salmoqqa ega.

2016 yilda Toshkent shahar bo'yicha jami 16962 kishiga yangi yoshga doir pensiyalar tayinlandi, xususan Yunusobod tumanida 2167 kishiga yangi yoshga doir pensiya tayinlandi. Mahkamasining 2015 yil 3 apreldagi 81-son Qarori bilan tasdiqlangan Nizomga muvofiq, ro'yxatdagi barcha faxriylarga 800000 so'mlik pul mukofotlari tuman hokimliklari, Mudofaa ishlari bo'limi, Bandlikka ko'maklashuvchi va aholini ijtimoiy muhofaza qilish Markazlar va boshqa idoralar mas'ullari bilan hamkorlikda tantanali ravishda topshirildi.

2.6 -jadval

2015-2016 yillarda Bjudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumanida yangi tayinlangan yoshga doir pensiyalar²⁷

№	Hududlar nomi	Yangi tayinlangan yoshga doir pensiyalar jami soni		shu jumladan:			
				ayollarga		2015 yilga nisbatan farq	
				54 yoshdan pensiya			
		2016 y	2015 y	2016 y	2015 y	sonda	%da
1	Bektemir	328	338	65	75	-10	-15,4
2	Mirobod	995	845	254	248	6	2,4
3	M.Ulug‘bek	1748	1998	540	621	-81	-15
4	Olmazor	1924	1989	431	457	-26	-6
5	Sergeli	1489	1546	380	441	-61	-16,1
6	Uchtepa	1755	1830	452	463	-11	-2,4
7	Chilonzor	1564	1695	425	481	-56	-13,2
8	Shayxontoxur	1806	1844	445	411	34	7,6
9	Yunusobod	2167	2281	637	648	-11	-1,7
10	Yakkasaroy	675	775	183	198	-15	-8,2
11	Yashnobod	1819	1821	566	581	-15	-2,7
Shahar bo‘yicha		16270	16962	4378	4624	-246	-5,6

²⁷ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumani bo'limi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Pensiya jamg'armasi Toshkent shahar tuman bo'limlari tomonidan "O'zbekiston pochta" hududiy bo'linmalari va Davlat Tijorat "Xalq banki" filiallari orqali pensiya va nafaqalar to'lovlari bo'yicha monitoringlar o'tkazildi. 2016 yilning yanvar-dekabr oylari davomida tijorat banklari va aloqa bo'limlaridan pensiya oluvchi, 279 834 nafar ishlamaydigan pensiya (nafaqa) oluvchilarning 267576 nafari (96 %) bilan monitoring o'tkazildi. Shuningdek, 9692 nafar (100% miqdorda) bank plastik kartalari orqali pensiya (nafaqa) oluvchilardan 9692 nafari (100%) bilan monitoringlar o'tkazildi.

2.7-jadval

Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tuman bo'limi tomonidan to'langan mablag'larning pensiyalar va ijtimoiy nafaqalar tirlari bo'yicha taqsimlanishi²⁸, 2016-yil

Ko'rsatkichlar	summa, ming so'm	ulushi, %
Hisobot oyi davrida byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi hisobraqamlariga pensiya, nafaqa va oylik kompensatsiyalar uchun moliyalashtirilgan mablag'	275 035 356,4	100,0
Ishlamaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar to'lovi	252 378 107,40	91,76
Ishlovchi pensionerlarga pensiya va nafaqalar to'lovi	16 478 586,00	5,99
Bolalikdan nogironlik nafaqasi to'lovi	4 045 203,87	1,47
Ishlamaydigan fuqarolarga uy-joy kommunal tulovlariga oylik kompensatsiya to'lovlari	560 634,60	0,20
Ishlovchi fuqarolarga uy-joy kommunal to'lovlariga oylik kompensatsiya to'lovlari	136 126,70	0,05
Ishlamaydigan fuqarolarga bola tugilganda suyunchi puli to'lovlari	212 726,80	0,08
Ishlovchi fuqarolarga bola tugilganda suyunchi puli to'lovlari	1 223 971,00	0,45

²⁸ Byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Yunusobod tumani bo'limi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

2.7-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, ya'ni ajratilgan mablag'larning 91,8 foizini ishlaydigan pensionerlarga pensiya va nafaqalar to'lovi uchun shahar boshqarmasidan olingan subvensiyalar, 5,99 foizini ishlovchi pensionerlarga pensiya va nafaqalar to'lovi uchun, 1,47 foizini bolalikdan nogironlik nafaqasi uchun subvensiyalar, 0,25 (0,05+0,2) foizini uy-joy kommunal tulovlariga oylik kompensatsiya to'lovlari, 0,53 foizini bola tugilganda suyunchi puli to'lovlari uchun olingan subvensiyalar tashkil qiladi.

Pensiya jamg'armasining tuman bo'limlarida tuzilgan "Pensiya va nafaqalarni tayinlash komissiya" sini ish faoliyatini nazorat qilish uchun Boshqarma tomonidan doimiy monitoring nazorati o'rnatilgan. 2016 yilda ham "Pensiya" dasturiy majmuasi orqali pensiya va ijtimoiy nafaqalarning amaldagi Qonunchilikda belgilangan muddatlarda tayinlanishi yuzasidan kunlik tahliliy ma'lumotlar olinib, Pensiya jamg'armasi tuman bo'limlari o'rtasida elektron pochta orqali tahliliy muhokamalar o'tkazilishi hamda axborot almashinuvi yo'lga qo'yilgan.

Jumladan, pensiya, ijtimoiy nafaqa va bir martalik to'lanadigan suyunchi pullarining qonunchilikda belgilangan o'n kunlik muddatlarda tayinlanishi, dafn nafaqalari va va pensionerning vafoti munosabati bilan to'lanmay qolgan pensiya pullarining esa, Nizom talablariga muvofiq, bir kunlik muddatlarda tayinlab, to'lovga berilishi yuzasidan 2016 yil davomida nazorat ishlari muntazam olib borilib, Boshqarma tomonidan o'tkazilgan yig'ilishlarda muhokama qilib borildi.


2.3 Jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti mablag'larining shakllanishi va ulardan foydalanishning tahlili

"Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonun (2004 yil 2 dekabrda 702-II-son) asos soldi. Qonunning 6-moddasiga ko'ra, ish beruvchilarning, shuningdek mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etishi, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiydir. Yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan

holdagi dehqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek boshqa fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar.

Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida" qaroriga (2004 yil 21 dekabrda 595-son) asosan Xalq banki shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochadi, fuqarolarni jamg'arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga oladi va shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari bo'yicha yagona ma'lumotlar elektron bazasini yuritadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo'qotish bilan bog'liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi maxsus byudjetdan tashqari ijtimoiy jamg'armalardan moliyalashtirilishi jamg'arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdeq O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.



2.4-rasm. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etish mexanizmi²⁹

²⁹O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi 702-II-sonli Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.

O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, respublikamiz hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti olish huquqiga ega. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunga asosan:

- davlat jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolarga shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarida jamg‘arilgan mablag‘lari saqlanishi hamda to‘lanishini kafolatlaydi;

- jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida ishtirok etuvchi fuqarolar pensiya to‘lovlari oluvchilar sifatida jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini qonun hujjatlariga muvofiq davlat pensiyasini olish huquqi yuzaga kelgan taqdirda olish huquqiga ega;


- to‘lovlarni oluvchilar o‘zlari mustaqil ravishda belgilaydigan muddat mobaynida har oylik jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini olishni yoki jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini bir yo‘la olishni tanlash huquqiga ega;

- fuqaro vafot etgan taqdirda, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan mablag‘lar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda merosga o‘tadi va merosxo‘rga bir yo‘la to‘la hajmda to‘lanadi;

- fuqaro O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga, doimiy yashash joyiga chiqib ketayotgan bo‘lsa, shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvarag‘ida jamg‘arilgan mablag‘lar bir yo‘la to‘la hajmda to‘lanadi.

Fuqaro O‘zbekiston Respublikasining “Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risida”gi kodeksining 179(2)moddasiga asosan “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonun hujjatlarini buzishi, ish beruvchi yuridik shaxslarning rahbarlari tomonidan Xalq banki filialiga fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida hisobga olish uchun zarur ma‘lumotlarni fuqarolarning shaxsiga oid ma‘lumotlar bilan bog‘liq o‘zgarishlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni qasddan taqdim etmaslik yoki noto‘g‘ri ma‘lumotlarni taqdim etganlik xuddi shuningdek hisoblab chiqarilgan va kiritilgan jamg‘arib boriladigan pensiya badallari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni xodimlarga taqdim etmaslik eng kam

ish haqining ikki baravaridan to‘rt baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.



2.5-rasm. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida to‘lovlarni olish mumkin bo‘lgan holatlar³⁰

Jamg‘arib boriladigan majburiy pensiya badallarini kiritishdan bosh tortish mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-varaqlarini ochish va yuritish, ushbu hisobvaraqlarning holati to‘g‘risida fuqarolarni xabardor qilish, jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini tayinlash va berish tartibini buzish mansabdor shaxslarga eng kam ish haqining uch barobaridan besh barobarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.

³⁰O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi 702-II-sonli Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.

Fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisob-varaqlaridagi mablag'laridan belgilanganidan boshqa maqsadlarda foydalanish mansabdor shaxslarga eng kam ishhaqining besh baravaridan etti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.


Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofiq mazkur fuqarolarning yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi. O'zining shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ida mavjud bo'lgan ma'lumotlarni Xalq banki filialidan bir yilda bir marta bepul, shuningdek o'z so'roviga ko'ra istalgan vaqtda olish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi qonunning maqsadi fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Davlat tomonidan amalga oshiriladigan markazlashtirilgan jamg'arish yoki ishlovchilar ish haqining bir qismini badal ko'rinishida pensionerlar foydasiga undirish pensiya to'lovlari manbaining ishonchli asosini ta'minlaydi. Bu imkoniyat nafaqat emissiya yo'li bilan, balki ijtimoiy siyosat doirasida zaruriy hollarda ish haqi miqdorini joriy ish haqi va pensiya ajratmalariga taqsimlashga tegishli o'zgartirishlar kiritish yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin.

Tatbiq etilayotgan avlodlar birdamligi qayta taqsimlash tamoyiliga asoslangan bo'lib, pensiya tizimi ishlovchilarning tegishli moliyaviy muassasalarga, xususan jamg'ariladigan pensiya jamg'armalariga mablag'lar qo'yishini inkor etmaydi. Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat'i nazar tayinlanadi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotida ijtimoiy adolat va ijtimoiy himoya tizimi tamoyillari asosida ijtimoiy siyosat amalga oshiriladi. Jamiyatni rivojlanishida ijtimoiy tenglik, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholi turmush darajasini oshirish kabi vazifalar bajariladi.

Bizning fikrimizcha, “avlodlar birdamligi” (davlat) pensiya tizimi bilan birga bosqichma-bosqich jamg‘ariladigan pensiya tizimini rivojlantirishni maqsadga muvofiq ravishda izchillik bilan amalga oshirish zarur. Buning natijasida Byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga to‘lanadigan majburiy to‘lovlar bo‘yicha ish beruvchi tadbirkorlik subyektlari zimmasidagi yukni kamaytirish va ularning investitsion faolligini oshirish imkoniyatlari yaratiladi.

Hozirgi kunda xorijiy davlatlar amaliyotida pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o‘zida uch yo‘nalish – minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o‘zining ish beruvchilarga qo‘shimcha pensiyani shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, alohida xususiy pensiyani ta‘minlash belgilangan.



2.6-rasm. Shaxsiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisob-varaqlarida mablag‘larni shakllantirish manbalari³¹

O‘zbekiston Respublikasi “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunining 13-moddasida ish beruvchi tomonidan majburiy jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish, ularni yuritish

³¹O‘zbekiston Respublikasining “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi 702-II-sonli Qonuni asosida muallif tomonidan tuzildi.

tartibiga rioya qilish, badallarni to'g'ri va to'liq hisoblab chiqarish hamda o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni moliya, davlat soliq xizmati organlari va Xalq banki tomonidan amalga oshirilishi belgilangan bo'lsa-da, ushbu organlar orasida o'zaro hamkorlik lozim darajada yo'lga qo'yilmagan.

Mehnat faoliyatini mehnat shartnomasi asosida amalga oshiruvchi fuqarolar jamg'arib boriladigan pensiya tizimida, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, majburiy ishtirok etadi, yakka tartibdagi tadbirkorlar, yuridik shaxs tashkil etmagan holdagi dexqon xo'jaliklarining a'zolari, shuningdek boshqa fuqarolar tizimda ixtiyoriylik asosida ishtirok etadilar. Bunda tizimda majburiy tartibda ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ish beruvchilar tomonidan taqdim etilgan so'rovnoma asosida ular joylashgan hududdagi Xalq banki filiallarida amalga oshiriladi, ixtiyoriylik asosida ishtirok etuvchi fuqarolarni hisobga olish ularning arizasiga muvofik yashash joyidagi Xalq banki filialida amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilgan ikki holatda ham, Xalq banki tizim ishtirokchilariga umrbod qilib belgilanadigan, doimiy shaxsiy tartib raqamli shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochadi va belgilangan tartibda Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi yozib beradi. Shaxsiy Jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tartib raqami berish fuqarolarning pasportidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

Jamg'arib boriladigan pensiya daftarchasi yo'qotib qo'yilgan (yo'qolgan) takdirda, uning dublikati shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'ining o'sha tartib raqami qo'yilgan holda beriladi.

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari fuqarolarning qonun hujjatlariga muvofik hisoblab chiqarilgan daromad solig'ining tegishli kamaytirilgan summasi hisobiga ish beruvchi tomonidan har oyda to'lab boriladi.

Jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallarining miqdori xodimlarning, shu jumladan ishlayotgan pensionerlarning ish haqi va boshqa daromad summasi asosida hisoblab chiqariladi hamda har yili O'zbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasi tomonidan navbatdagi yilga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetini shakllantirish vaqtida belgilanadi.

Ish beruvchi o'zining mablag'lari hisobidan o'z xodimlarining shaxsiy Jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga qo'shimcha badallar o'tkazishi mumkin.

2.8-jadval

O'zbekiston Respublikasi AT Xalq bankining asosiy ko'rsatkichlari³²

(mln. so'm)

№	Ko'rsatkichlar	01.01.2016 y.	01.01.2017 y.	01.01.2016 yilga nisbatan farqi	
				+/-	%
1	Jami kapital	454 957,4	554 927,1	99 969,7	122,0%
1.1	Ustav kapital	254 000,0	299 000,0	45 000,0	117,7%
2	Jami aktivlar	3 585 007,8	4 380 941,6	795 933,7	122,2%
3	Kredit qo'yilmalar	1 883 225,4	2 352 325,3	469 100,0	124,9%
4	Investitsiya va qimmatli qog'ozlar portfeli	130 800,6	122 747,4	-8 053,2	93,8%
5	Jalb qilingan depozitlar qoldig'i	2 953 763,2	3 583 829,4	630 066,2	121,3%
6	Aholi omonatlari	2 088 409,6	2 526 766,2	438 356,6	121,0%
	Shu jumladan:				
6.1	Muddatli omonatlar	114 665,5	116 292,8	1 627,3	101,4%
6.2	Jamg'arib boriladigan omonatlar	13 790,2	68 680,6	54 890,5	498,0%
6.3	talab qilib olinguncha omonatlar	313 393,5	343 582,9	30 189,5	109,6%
6.4	FJBPT hisobraqamlaridagi mablag'lar	1 646 560,5	1 998 209,8	351 649,3	121,4%
7	Aholi omonatlari qoldig'ining jami depozit mablag'laridagi ulushi (%da)	70,7%	70,5%	-0,2%	99,7%
8	Aholining jamg'arib boriladigan va muddatli omonatlarining jami aholi omonatlari qoldig'idagi ulushi (%da)	6,2%	7,3%	1,2%	119,0%
9	Sof foyda	124 778,7	151 780,6	27 002,0	121,6%
10	Aktivlar rentabelligi (%)	3,5%	3,5%	0,0%	99,5%
11	Kapital rentabelligi (%)	27,4%	27,4%	-0,1%	99,7%
12	Filiallar soni	197	197	-	100,0%
13	Mini banklar soni	35	27	-8	77,1%
14	Bankning boshqa muassasalari soni (jamg'arma, kommunal, maxsus va ko'chma kassalar hamda VASh, XPO' punkti)	1 287	1 243	-44	96,6%
15	Muomalaga chiqarilgan plastik kartochkalar soni (donada)	2 888 298	3 492 459	604 161	120,9%
16	Terminallar soni (donada)	26 657	26 828	171	100,6%

³² AT Xalq bankining web sayti ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi. Manba: <https://xb.uz/uz/info/bank-raqamlarda>

Demak, yuqoridagi keltirilgan jadval ma'lumotlarini tahlil qiladigan bo'lsak, asosiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'larini nazorat qiluvchi AT Xalq banki jami kapitali miqdori 2016 yil yakuni bo'yicha 554 927,1 mln.so'mni tashkil etib, 2015 yilga nisbatan 22 foizga oshgan. Aholi omonatlari 2016 yilda 2 526 766,2 mln.so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 21 foizga oshganligini ko'rishimiz mumkin. Bizning mavzuimizga oid bo'lgan jihatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, aholi omonatlari tarkibida jamg'arib boriladigan omonatlar hajmi keskin ravishda oshganligini ko'rishimiz mumkin.

Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti hisobraqamlaridagi mablag'lar holatini o'rganadigan bo'lsak, 2016 yil yakuni bo'yicha jami 1 998 209,8 mln.so'mni tashkil etib 21,4 foizga oshgan. Demak, yangidan yangi ish o'rilari yaratilganligi, aholinig real daromadi oshganligi hisobiga ushbu ko'rsatkichga erishilgan. Aholining jamg'arib boriladigan va muddatli omonatlarining jami aholi omonatlari qoldig'idagi ulushi esa 2015 yilda 6,2 foizga, 2016 yilda esa 7,3 foizga oshganligi mijozlarning, omonatchilarning bankka bo'lgan ishonchi yildan-yilga oshayotganligidan dalolat beradi. Umuman olganda AT Xalq bankining asosiy ko'rsatkichlari tahlil yakuni bo'yicha ijobiy holat deyish mumkin.

Xalq bankida jamg'arib boriladigan pensiya tizimining yagona, barcha filiallarni birlashtiradigan avtomatlashtirilgan elektron bazasi barpo etildi, ushbu tizimi axborotning himoyalangan almashinuvini ta'minlaydi. 2017 yilning 1 iyun holatiga ushbu tizimda 8 milliondan ziyod kishi ishtirok etgan. Ularning har biri uchun shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvarag'i ochilgan va yuritilmoqda, jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining maxsus daftarchalari tayyorlanib, tarqatilgan. Tizim ishtirokchilari ularni ish beruvchilar orqali olishadi. Istalgan har bir kishi Xalq banki filiallaridan o'z ShJBPHlarida jamg'armalar va ularga hisoblab yozilgan foizlar to'g'risida aniq va batafsil axborot olishga haqlidir.

Xalq banki nafaqat fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlari hisobini yuritadi va ularga xizmat ko'rsatadi, balki mablag'larni

investitsiyaviy va kredit zaxiralari, shuningdek moliyaviy dastklar sifatida samarali joylashtirish yo'li bilan ulardagi summalarni ko'paytiradi. "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonunning 10-moddasiga ko'ra, bank shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'larga pul qadrsizlanishiga nisbatan yuqori stavkalar bo'yicha foizlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisoblab qo'shadi. Ularning miqdori bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hamda Markaziy banki bilan kelishib, jamg'arib boriladigan pensiya tizimining mablag'larini joylashtirishdan olingan daromadlar hisobga olingan holda belgilanadi.

II-bob bo'yicha xulosa

1. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti, ijtimoiy nafaqalar to'lash, kompensatsiya to'lovlari va boshqa to'lovlar bo'yicha xarajatlarni moliyalashtirishga yo'naltiriladigan majburiy to'lovlar, badallar, shuningdek boshqa manbalardan tushadigan mablag'larni jamlaydi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining mablag'laridan: ishlayotgan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, ishlamaydigan pensionerlarga davlat pensiyalarini to'lash, davlat pensiya ta'minoti huquqiga ega bo'lmagan qariyalar va mehnatga qobiliyatsiz fuqarolarga nafaqalar, dafn etish marosimi uchun nafaqalar, belgilangan tartibda buyruqadigan boshqa xarajatlar uchun foydalaniladi.

2. Davlat Pensiya jamg'armasining daromadlari tizimida asosiy tushum ish haqi fondiga nisbatan ajratiladigan yagona ijtimoiy to'lovning (24,8%) hissasiga to'g'ri kelib, yillar davomida uning jami daromaddagi tutgan ulushi pasayish xususiyatiga egadir. Aksincha fuqarolarning ish haqlari hisobidan ajratiladigan yagona ijtimoiy sug'urta fondiga ajratma (8,0%) hissasi oshib bormoqda. Buning asosiy sababi aholining ish bilan bandligining oshish sur'atlari va o'tgan yillarga nisbatan ajratma stavkalarining oshishi hisoblanadi;

III-BOB. DAVLAT PENSIYA TA'MINOTI TIZIMI JAMG'ARMALARINING BARQARORLIGINI TA'MINLASH MASALALARI

3.1 Xorijiy mamlakatlarda pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlash masalalari

Iqtisodiy jihatidan rivojlangan mamlakatlarida, jumladan, Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarda davlat pensiya ta'minoti tizimi uzoq yillardan rivojlanish tarixiga ega. Mazkur davlatlarda davlat pensiya fondlariga tushumlar ishchilar va ish beruvchilar tomonidan to'lanuvchi badallar hisobiga amalga oshiriladi. Xorijiy mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta badallari miqdorini oshirish bilan pensiya fondlari daromadlarini ko'paytirish chora-tadbirlari ko'rildi. XIX asrning 70-yillaridan boshlab ikkinchi jahon urushiga qadar Yevropa va Amerikadagi barcha mamlakatlarda davlat sug'urtasi to'liq qamrab oldi. Jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy qo'llab-quvvatlanishdan foydalanishlari ta'minlandi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy yordam ko'rsatish davlat tizimi yaratildi. Ijtimoiy dasturlarni budjetdan moliyalashtirish yo'lga qo'yildi, davlat ijtimoiy sug'urtasi sifatidagi ijtimoiy siyosatning yangi mexanizmi ishlay boshladi.

AQSh pensiya tizimi korporativlikka asoslangan bo'lib, deyarli boshqa mamlakatlarning pensiya tizimidan farq qilmaydi. Mamlakatda pensiyaga chiqish 62 yoshni, o'rtacha umr ko'rish darajasi 78,1 yoshni tashkil etib, mehnat pensiyasini olish uchun shaxs 35 yil ish stajiga ega bo'lishi lozim. Avstraliyada pensiyaga chiqish 65 yoshdan belgilangan bo'lib, o'rtacha umr ko'rish 81 yoshni tashkil etadi. Ammo bu davlatda pensiyaga chiqishni hisobga olinayotganda pensionerlarning ish stajiga e'tibor berilmaydi. Shvetsiyada ishchilar o'rtacha 43 yil yashaydi. Shved ishchilari bu muddat ichida o'zlariga ma'qul keluvchi pensiyani to'plash imkoniyatiga ega. Bu mamlakatda aholi 65 yoshdan pensiyaga chiqadi va ish staji 30 yilni tashkil etgan bo'lishi lozim, mamlakatning o'rtacha

umr ko‘rish darajasi 80,9 yoshni tashkil etadi. Hozirgi davrda Shvetsiya - dunyoda ijtimoiy ta‘minotga ajratilgan mablag‘lari davlat xarajatlarini YaIM dagi ulushi 42 % dan yuqori bo‘lgan mamlakatdir. Pensiyalar (qarilik, xizmat yillar uchun, nogironlik bo‘yicha, boquvchisini yo‘qotganlik hodisasi) va nafaqalar (uy-joylarga, ta‘lim olish, ishsizlik bo‘yicha) ijtimoiy ta‘minotning muhim turlaridan hisoblanadi. Pensiya ta‘minoti darajasi oddiy shvetsiyalikning pensiyaga ketish chog‘ida turmush tarzini tubdan o‘zgartirmaslik imkonini beradi. Shvetsiyada pensiyalarning istalgan turini hisoblash asosiga me‘yorlashtirish tamoyili qo‘yilgan. Pensiya yashash minimumiga yaqinlashadigan bazaviy summaga foizlarda aniqlanadi. Pensiya ta‘minotining ushbu turi bo‘yicha sug‘urtalash albatta, barcha iqtisodiy faol aholiga jumladan, kichik tadbirkorlarga ham tadbqiq etiladi, uni olishning asosiy sharti kamida 3 yil yollanib ishlashdir, bundan tashqari, bu pensiya to‘lovi uchun 30 yillik mehnat staji kerak.

Shvetsiyada ishlagan yillar uchun pensiya olish huquqiga 65 yoshga etgan shaxslar egadirlar. Pensiya hajmi uni oluvchining daromadiga bog‘liq, ammo ish haqi yuqoriroq bo‘lgan 30 yillik mehnat stajining taxminan 60 foizini tashkil qiladi. Davlat pensiya fondlari korxonalar ish haqi fondidan ma‘lum foiz ajratmalari hisobidan shakllanadi. Jismoniy shaxslardan pensiya ajratmalari undirilmaydi. Aholining pastroq ish haqi to‘lanadigan toifalari bilan bir qatorda barcha pensionerlar turar joy dotatsiyasidan foydalanadi. 1916-yilda kiritilgan ishlab chiqarishda ishga ketayotib yoki qaytishda yo‘lda shikastlanish holatlarida hamda kasb kasalliklari vaziyatidagi sug‘urtalash mamlakatdagi majburiy sug‘urtalashning eng eski turlaridan biridir. Mamlakatda 1891-yildan kasallik va nogironlik bo‘yicha sug‘urtalash amalga kiritilgan. Amaldagi qonunchilikda shikastlangan yoki kasb kasalligiga chalinganlarga kamida 90 kun davomida dori-darmonlarga xarajatlarni qoplashga pensiya va nafaqalar to‘lanadi. Shvetsiyada bolaga 8 yoshga etgunga qadar bir martali nafaqa, 12 yoshgacha bo‘lgan bolalar va ota-onalarga kasallik bo‘yicha nafaqalar, ota-onalardan birini yo‘qotish bilan bog‘liq ravishda 18 yoshgacha bolalarga nafaqalar, 16 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalarga to‘lovlar mavjud. Bu muddat o‘tgandan keyin nogiron to‘liq ish haqiga

(100%) mos summada to'lanadigan hayot sug'urtasi bo'yicha sug'urta qoplamasini oladi. Davlat pensiyalarining keltirilgan turlariga qo'shimcha ishchilar quyidagi tarzda daromadlar yo'qotilishini qoplashlari ham mumkin. Davlat korxonalarining va ko'pchilik xususiy kompaniyalarning xizmatchilari pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lib, ularga ishlagan kompaniya va korxonalar jamoa shartnomalari shartlari bo'yicha to'lanadi. Qator banklar, kooperativlar, kompaniyalar ishchilar bilan keksa yoshga etganda mehnat layoqatini yo'qotgan vaziyatda shaxsiy sug'urta shartnomalarini tuzadi. Bundan tashqari, qarilikda qo'shimcha kafolatlangan mablag'larga ega bo'lish uchun taxminan 2 % ishchilar sug'urta kompaniyalari bilan ularga 65 yoshga etganda muntazam sug'urta to'lovlarni to'lashga shartnomalar tuzadi. Jadval ma'lumotlarining tahlilidan ko'rinib turibdiki, dunyo mamlakatlarida mehnatga layoqatli aholi soni kamayib bormoqda. Aholini ijtimoiy himoya qilish sug'urtalash asosida tashkil etilgan davlatlarning xarajatlar tizimida ishsizlarga ijtimoiy yordam sifatida beriluvchi mablag'lar egallaydi. Bundan tashqari, kasbi yoki malakasini o'zgartirish uchun amalga oshirilgan xarajatlar ham aynan ijtimoiy sug'urta fondlari mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Natijada mamlakatda ishsizlar sonining ko'payishi, ushbu fondlardan ishsizlarga beriluvchi nafaqalar va ularni qayta tayyorlashga sarflanuvchi xarajatlar miqdorining o'sishiga olib keladi. Demak, milliy iqtisodiyotda ishsizlar sonining ortib borishi bir tomondan ijtimoiy sug'urta fondlari daromadlarini qisqarishiga olib kelsa, ikkinchi tomondan ishsizlar uchun beriluvchi nafaqalar va ularni malakasini oshirish, qayta tayyorlashga sarflanuvchi xarajatlarning keskin o'sishiga olib keladi. Rossiyada erkaklar 60 yoshdan, ayollar 55 yoshdan boshlab pensiya yoshiga etgan hisoblanadi. O'rtacha umr ko'rish yoshi 66 yoshni tashkil etadi. Aholi 20-25 yillik ish stajiga ega bo'lishi yoki eng kamida 5 yillik ish stajiga ega bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Pensiya islohotlarida ko'pgina dunyo mamlakatlari inqiroz sharoitida davlat budjeti defitsitini qisqartirish maqsadida pensiya yoshini uzaytirish yo'lini tanladi. Fransiya mamlakatida erkaklar uchun pensiya yoshini 60 yoshdan 62 yoshga, ayollar uchun 55 yoshdan 57 yoshga, Ispaniya 2013-2027 yillar uchun ayollar va erkaklar

pensiya yoshini 65 yoshdan 67 yoshga, Vengriya 62 yoshdan 65 yoshga, Gretsiya 2015 yilda 63 yoshdan 65 yoshga, Irlandiya 2014 yilda 66 yoshga, 2028 yilda 68 yoshga choʻzishgan, Ukrainada ayollar va erkaklar pensiya yoshini 62 yosh qilib belgilandi. Bir qator mamlakatlarda sugʻurta badallari miqdori oshirildi, pensiya fondiga ajratmalar olinadigan baza kengaytirildi. Masalan, Belgiya, Italiya, Shvetsiya, Shveytsariya, Portugaliyada badallar toʻlashda tayanch ish haqi miqdoriga mukofotlar va taʼtil davri nafaqalari ham qoʻshiladi. Masalan, Fransiya, Germaniya, Gollandiya va Avstriyada bu tartib joriy etilgan. Ushbu toʻlovlar turli mamlakatlarda turli shakldagi moliyaviy vositalar orqali amalga oshiriladi. Ayrim mamlakatlarda ushbu toʻlovlar maxsus soliqlar shaklida boʻlsa, boshqalarida sugʻurta badallari shaklida, boshqasida esa davlat budjetiga toʻlanuvchi soliqlardan ajratmalar shaklida qoʻllaniladi. Lekin ularning barchasida stavkalar davlat tomonidan maxsus qonunlar orqali belgilanib qoʻyiladi. Mazkur stavkalar miqdorini belgilashda mamlakat hukumati, mamlakatdagi aholining keng qatlamlari vakillari, jumladan yirik kontsernlar, korporatsiyalar, ishlab chiqarish tarmoqlaridagi kasaba uyushmalari vakillari ishtirok etmaydi. Bunday holatda pensiya fondlariga yoʻnaltiruvchi toʻlovlar stavkasini, ayniqsa, ishchi va xizmatchilarning ish haqidan toʻlanuvchi toʻlovlar stavkasini oshirish, mamlakat aholisi oʻrtasida turli xildagi noroziliklarni keltirib chiqarishi va shu orqali ijtimoiy siyosiy hayotni barqarorsizlanishiga sababchi boʻlishi mumkin.

AQSHda davlat pensiya tizimi hamda xususiy pensiya tizimi amal qiladi. Shunga muvofiq ravishda AQSH fuqarolari oʻzini bir emas, uch turdagi pensiya bilan taʼminlaydi: davlat; xususiy jamoa (ish joyi boʻyicha) va xususiy individual (shaxsiy pensiya hisob-raqami ochish yoʻli bilan). Taqsimlovchi (davlat pensiyasi) tizimida pensionerlar hozir ishlayotgan fuqarolar tomonidan Pensiya fondiga badallarnitoʻlashlari hisobiga pensiya oladilar. AQSHda eng yirik davlat pensiya tizimi – umumiy Federal dastur hisoblanib, ushbu dastur iqtisodiyotning xususiy sektorida band boʻlgan barcha aholini qamrab oladi va taqsimlovchi tamoyilga asoslanadi. Dastur 1935-yilda qabul qilingan “Ijtimoiy sugʻurta toʻgʻrisida”gi Qonunga asosan amal qiladi va minimal pensiyani taʼminlaydi. Jamgʻariluvchi

tizimga esa davlat pensiya dasturlari bilan birga xususiy pensiya dasturlari ham tegishlidir. Jamg'ariluvchi tizimdagi davlat pensiya dasturlari mahalliy organlarga va Hukumat tarkibida ishlovchi fuqarolarga mo'ljallangan. Iqtisodiyotning xususiy sektorida ishlovchilar ish joyida tashkil etiladigan qo'shimcha davlat pensiya tizimida ishtirok etishlari mumkin. Dastur belgilangan to'lovlar asosida ish beruvchilar tomonidan qilinadigan ajratmalar hisobidan shakllanadi, bunda ishlovchilar ishtirok etmaydi. Har bir AQSH fuqarosi tijorat va jamg'arma banklarda, pay fondlarida, sug'urta kompaniyalarida o'zining shaxsiy pensiya hisob-raqamini ochishi mumkin. Shaxsiy pensiya hisob-raqamiga to'lovlarning yillik miqdorining yuqori chegarasi cheklangan bo'lib, 2000 AQSH dollarini tashkil qiladi. Ushbu hisob-raqamdagi mablag'larni 59,5 yoshgacha yechib olish mumkin emas, 79,5 yoshga to'lganda esa hisob-raqam majburiy tartibda yopiladi. Hisob-raqamdagi ushbu mablag'lar soliqqa tortilmaydi, ammo, ushbu mablag'larni hisob-raqamdan yechib olishda hamda hisob-raqamni yopishda jamg'arilgan mablag'lardan daromad solig'i olinadi. AQSHda 1938 yilgacha tug'ilgan shaxslar uchun pensiya yoshi 65 yoshni tashkil qiladi. Aholining umrguzaronligi oshib borishi bilan "Ijtimoiy ta'minoti to'g'risida"gi Qonunga tegishli o'zgartirishlar kiritildi va pensiya yoshi 67 yosh qilib belgilandi. AQSH pensiya tizimining modeli bir qancha Lotin Amerikasi davlatlarida va Portugaliyada ham amal qiladi.

Chili pensiya tizimi dunyodagi innovatsion pensiya tizimlaridan biri hisoblanadi. Pensiya tizimining Chili modelida pensiya jamg'armalari shakllanishining javobgarligi ishlovchi fuqarolar zimmasigayuklatilgan. Har bir fuqaroning o'zining pensiya hisob-raqami mavjud bo'lib, ushbu hisob-raqam ishlovchilar ish haqining oylik 10 foizini tashkil etuvchi badallar hisobidan to'ldirib boriladi. Keyinchalik ushbu mablag'lar fuqarolar xohishiga ko'ra xususiy boshqaruvchi kompaniyalar tomonidan kapitalizatsiya qilinadi. Chilida pensiya yoshi erkaklar uchun 65 yoshni, ayollar uchun 60 yoshni tashkil qiladi.

3.1-jadval

2015-yilda turli mamlakatlarda pensiyaning o‘rtacha miqdori, AQSH dollarida³³

Mamlakatlar	pensiyaning o‘rtacha miqdori
Gretsiya	573
Ukraina	52
Gruziya	60
Armeniya	100
Bolgariya	140
Bellorussiya	175
Estoniya	225
Qozig‘iston	250
Finlyandiya	1982
Germaniya	1400
AQSH	1200


Xitoyda pensiyalarni dastlab chinovniklar va davlat kompaniyalari ishchilari olishgan. Keyinchalik bu tizimga bozor islohotlari natijasida xususiy sektorda ishlovchi shahar aholisi ham jalb qilingan. 2007-yilda 30 foiz aholi pensiyaga ega bo‘lgan bo‘lsa, qolganlarini an‘anaviy tarzda farzandlari boqishgan. 2009-yilda Xitoy hukumati qishloq aholisi uchun ham pensiyalarni joriy qildi. 2012-yilda pensiya tizimi Xitoy aholisining 55 foizini qamrab oldi. Xitoyda 2013-yilda 60 yoshdan oshgan aholi soni 202 million kishi bo‘ldi va aholi sonining 15 foizini tashkil qilmoqda. Bu qatlam bilan ishlash, ularga hurmat va ehtirom ko‘rsatish, jamiyat hayotidan ajralib qolmasligini ta‘minlash yuzasidan Xitoy keng ko‘lamli chora-tadbirlarni allaqachon boshlagan.

Birdamlik pensiya tizimi – ishlovchilarning ish haqi jamg‘armasidan pensiya jamg‘armasiga soliq to‘lash va pensiya jamg‘armasidan pensionerlarga nafaqalar to‘lashga asoslangan. Individdning pensiya nafaqasi miqdori ish haqi va mehnat

³³ Ilmiy adabiyotlar asosida muallif tomonidan tuzildi.

stajiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, ish haqi va pensiya miqdori uzviy bog'liq emas, boshqacha so'z bilan aytganda ushbu tizim badallar miqdori bilan bog'lanmagan nafaqalarni nazarda tutadi.

Birdamlik pensiya tizimi davlat tizimi xarakteriga ega bo'lganligi uchun, uni korxona va tarmoq darajasida tashkil etish imkoni yo'q. ko'pgina rivojlangan davlatlarda pensionerlarning normal yashashi uchun shart-sharoitlarning yaratilishi ga'rb demokratiyasining sotsial sohadagi asosiy yutuqlaridan biri sifatida qaraladi.



3.1-rasm. Hozirgi kunda jahonda pensiya ta'minoti tizimlarining hozirgi zamon modellari³⁴

Birdamlik pensiya tizimini asosiy xususiyati – unda kuchli qayta taqsimlash elementlari mavjud bo'lgan holda pensionerlar o'rtasidagi kambag'allik va

³⁴ Ilmiy va o'quv adabiyotlarni o'rganish asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

tabaqalashuv darajasini sezilarli qisqartiradi. Birdamlik tizimi amal qilishining dastlabki davrlarida nafaqalarning past miqdori nisbat kam sonli kishilarni to'lo'v bilan ta'minlash uchun yetarli bo'lgan, ammo tizimning rivojlanib borishi bilan ish haqi jamg'armasidan to'lanadigan soliqlarni ortib borishi tendensyasi vujudga keldi. Birdamlik pensiya tizimining amal qilish tenglashtirish elementlari, ijtimoiy qaramlikni ortishi, investitsion xohishning susayishi kabi bir qator salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Masalan, AQSHda aholining keksayishi va pensiya ta'minoti muammolari ustida izlanish olib borgan Amerikalik tadqiqotchi S. Pelerson AQSHda shaxsiy jamg'armalarning YAIMdagi ulushi 60-70 yillarda 8 % da, 90-yillarda 5 % gacha pasayganligini e'tirof etgan. Bugungi kunda AQSHda 1946-1964-yillarda tug'ilgan soliq to'lo'vchilar keksa aholining nisbatan uncha katta bo'lmagan qismini tashkil qiladi. Aholining mazkur qismi jamg'arishga kam moyilligi bilan ajralib turadi. Taqsimlovchi tizimni tahlil etish, davlat pensiya tizimining monopol holati pensionerlarga tanlov imkoniyatini bermagan holda pensiya miqdori va to'lash shartlari borasida harakat qilish imkonini beradi.

Jamg'aruvchi pensiya tizimida pensiya badallari moliyaviy aktivlarga ega bo'lish uchun foydalaniladi. Ishlovchilarni keksalikda pensiyani moliyalashtirish uchun mo'ljallangan bunday aktivlarning umumiy miqdori qo'yilgan kapitaldan devident yoki aktiv moliyaviy mablag'lardan foiz shaklidagi daromad olish imkonini beradi va har yili tushadigan qo'shimcha pensiya badallarini investitsiya qilish maqsadida foydalanganligi tufayli vaqt o'tishi bilan ortib boradi. Ishlovchi pensiya yoshiga yetganda, jamg'arilgan aktivlar zahirasi doimiy pensiya to'lo'vlarini to'lash uchun foydalaniladi. Jamg'aruvchi pensiya tizimi sharoitida pensiya badallari stavkalarini hisoblash birdamlik tizimidagi qaraganda murakkab holatni keltirib chiqradi. Badallar stavkasini aktivlarining qaytish me'yorlari, ularni jamg'arish davomiyligi va davriga, ya'ni jismoniy shaxsning ishlash davri va davomiyligiga bog'liq boladi.

Hozirgi kunda pensiya tizimining jahon amaliyotida barcha mamlakatlarda o'ziga xos yo'nalishlari mavjud. Biz bu diplom ishida ba'zi bir davlatlarni pensiya

tizimini tahlil qilish orqali o'z fikrimizni bayon qilamiz. Dastlab bizga har tomondan hamkorlikda bo'lgan Rossiya Federatsiyasini olamiz.

Maburiy pensiya ta'minoti va mehnat pensiyalari to'g'risidagi qonunlar paketi qabul qilinishi bilan Rossiya Federatsiyasida pensiya ta'minoti tizimining quyidagi tarkibi yuzaga keldi: qarilik yoki nogironlik bo'yicha mehnat pensiyasini hamda qarovchisini yo'qotganlik uchun ehnat pensiyasini o'z ichiga oluvchi majburiy pensiya ta'minoti, ish beruvchilarning badallari va fuqorolarning mustaqil pensiya jamg'armalari hisobidan to'lanadigan pensiyalarni o'z ichiga oluvchi ixtiyoriy pensiya ta'minoti. "Majburiy pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Federal Qonunlarga binoan hozirgi vaqtda ish olib borayotgan va tegishli litsenziyalarga ega bo'lgan pensiya jamg'armalari Rossiya Federatsiyasi pensiya ta'minotining yuqorida sanab o'tilgan takibiy qisimlaridan har biri bo'yicha faoliyat ko'rsatishga haqlidir.

Pensiya tizimining tarkibiy qisimlaridan har birini mufassalroq ko'rib chiqamiz. Majburiy pensiya ta'minoti. Pensiya islohati konsepsiyasiga binoan hozirgi davlat pensiyasi uch qisimdan tashkil topishi lozim. Asosiy yoki ijtimoiy qonun bilan belgilanga, hamma uchun bir bo'lgan pensiyaning eng kam miqdori. U ilgari qonunlar, farmonlar bilan belgilangan pensiyaning eng kam miqdori, kompensatsiya to'lo'vlari va pensiyaga ustamalrni birlashtirgan. Uning miqdori maoshga ham, mehnat faoliyati davomida to'langan ta'minot badallari summasiga ham bog'liq emas. Umuman olganda, shaxsning mehnat faoliyati qanday bo'lganidan qat'iy nazar, davlat unga inflyatsiyga muvofiq indeksatsiya qilinadigan muayyan darajadagi daromad to'lanishini kafolatlaydi.

Ta'minot qismi pensiya stajiga, ya'ni korxona xodim uchun Pensiya jamg'armasiga ajratmalarni amalga oshirgan davrga va bu ajratmalar summasiga bog'liq. Shaxsga har oyda to'lanadigan mehnat pensiyasi ta'minot qismini miqdorini hisoblash juda oson: pensiya tayinlangan kungacha shakllangan pensiya kapitalni kutilayotgan pensiya to'lo'vlari davridagi oylar soniga bo'lish kifoya. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida mehnat pensiyalarini hisoblash uchun 19 yildan iborat davr qonuniylashtirilgan. Pensiya kapitali pensiya

tayinlangunga qadar narx-navo hamda mamlakatdagi oʻrtacha oylik maoshining oʻsishiga qarab indeksatsiya qilib boriladi. Jamgʻarib boriladigan tizim ham pensiya jamgʻarmalari miqdoriga bogʻliq. Biroq taʼminot qismidan farqli oʻlaroq mazkur pensiya jamgʻarmalari nafaqat ish beruvchi toʻlagan soliqlar summasidan tarkib topadi, balki bu mablagʻlarni har xil investitsion vositalar yordamida koʻpaytiradigan nodavlat pensiya jamgʻarmasi yoki boshqaruvchi kompaniyaning tanlanishiga ham muayyan darajada bogʻliq boʻladi. Pensiya tayinlangandan soʻng jamgʻarib boriladigan qismining miqdori har yili investitsiyalashdan olingan daromadlarni hisobga olgan holda indeksatsiya qilinadi.

Rossiya pensiya taʼminotida baʼzi bir muommalarga toʻqnash kelmoqda. Birinchi oʻringa “avlodlar toʻqnashuvi” muommasini qoʻyish mumkin. Xalaqaro mehnat byurosi maʼlumotlariga koʻra, hozirgi vaqtda YeIga aʼzo mamlakatlarda pensiya yoshidagi aholi qariyb 100 mln kishini tashkil etadi. Prognozlariga qaraganda, 2025-yilga kelib 65 yoshdan katta shaxslar soni 21 mln. Kishiga koʻpayadi, potrsial faol aholi soni esa 15 mln. Kishidan koʻproqqa kamayadi. Rossiyada bu nisbatan quyidagi koʻrinishga ega; mehnatga qobilyatli yoshdagi har ming kishiga 350 dan koʻproq pensiya yoshidagi shaxslar toʻgʻri keladi. Bu sharoitda pensiya yoshini oshirish masalasining qoʻyilishi bir qarashda tabiiy holdek boʻlib tuyuladi. Buyuk Britaniyada pensiya yoshi erkaklar uchun 65 va ayollar uchun 55 yosh. Biroq pensiya yoshini yanada oshirish muommosi xatto shu davlatlar uchun ham oʻz ahamiyatini yoʻqotgani yoʻq. Shuni takidlash lozimki, hozirgi pensiya yoshi ancha past boʻlgan mamlakatlarini yosh senzining sezilarli darajada oshishi kutilmoqda. Masalan, Fransiyada 2040-yilga kelib u 61-62 yoshgacha oshsa, Italiyada 65 yoshgacha ortadi, lekin bu erkaklar uchun 2010-yilda, ayollar uchun esa 2016-yilda yuz berdi.

Jahon banki hisob-kitobiga koʻra, 2030-yilgacha demografik xarajatlar uchun sarflanadigan mablagʻ Rossiya yalpi ichki maxsulotining ikki fozini tashkil etdi. Xullas, yaqin yillarda mamlakat rasmiylari pensiyaga chiqish muddatini oshirishlari hech gap emas.

Konservativ model ijtimoiy yo‘naltiriladigan bozor iqtisodiyotiga ega mamlakatlarga xosdir. Ularning orasida continental Yevropaning Avstriya, Germaniya, Italiya kabi mamlakatlari bor. Bu yerda davlat mavqei ancha kuchli; ijtimoiy tadbirlarga budgetdan ajratiladigan mablag‘lar xodimlar va ish beruvchilarning ta‘minot badallariga taxminan teng, qayta taqsimlashning asosiy kanallari yo davlat ixtiyorida, yo uning nazorati ostida. Ayni vaqtda davlat fuqorolarni moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash vazifasini ta‘minot himoyasi tizimiga topshirishga harakat qiladi. Shu tufayli ijtimoiy nafaqalar miqdori mehnatdan olingan daromadlarga va tegishli ravishda ta‘minot to‘lo‘vchilarga qilingan aratmalarning miqdorlariga bog‘liq bo‘ladi. Korxonalarning egalari hamda yollanma xodimlarning manfaatlarini ifoda etuvchi nufuzli kasaba uyushmalari birgalikda boshqaradigan ta‘minot kassalarining “o‘zini o‘zi boshqarish” mazkur modelining o‘ziga xos xususiyatlaridan biridir. Ishsizlik yuz bergan holda kafolatlangan to‘lo‘vlar miqdori mehnat stajiga, to‘lo‘vlar muddati esa ta‘minot badallarini to‘lashning davomiyligi, ularning miqdori va xodimning yoshiga bog‘liq bo‘ladi. Ko‘pgina mamlakatlarda ishsizlik bo‘yicha nafaqa to‘lash davri 50 yoshdan katta shaxslar uchun oshirilgan.

Ijtimoiy-demokratik model (u ba‘zan solidar model, deb ham ataladi) aholini himoya qilishda davlat yetakchi ro‘l o‘ynashini nazarda tutadi. Aholining daromadlari darajasini tenglashtirish va aholini yalpi ish bilan ta‘minlash davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor vazifalari hisoblanadi. Bu model shimoliy Yevropa mamlakatlari Shvetsiya, Norvegiya, Finlandiya o‘zining amaliy ifodasini topgan. Iqtisodiyotning rivojlangan davlat sektori ijtimoiy sohani moliyalashtirish negizi bo‘lib xizmat qiladi. Bu negizni mustahkamlashga soliq solish darajasi juda yuqori ekanligi ham ko‘maklashadi. YAIMda davlat xarajatlarining ulushi Shvetsiyada 66%, Finlandiyada 56%ni tashkil etadi. Bu xarajatlarining asosiy qismi ijtimoiy ahamiyatga molik obyektlarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltiradi. Bu xarajatlar orasida transfert to‘lo‘vlarining ulushi ham amcha katta bo‘lib, ularning yordamida milliy mahsulotning aholining kam ta‘minlangan tabaqalari foydasiga qayta taqsimlash amalga oshiriladi.

Ushbu modelning boshqa o‘ziga xos xususiyatlari quyidagilardir:

- ishlab chiqarish demokratiyasining rivojlangan tizimi;
- mehnat munosabatlari ayrim korxonalar yoki tarmoqlar darajasida emas, balki umummilliy miqiyosda tartibga solinishi;
- ishsizlik darajasini mumkin qadar kamaytirishga imkoniyat yaratadigan ta’sirchan vositalaridan foydalanilishi.

3.2-jadval

Jahonda turli mamlakatlar guruhlarida birdamlik qoplash koeffitsienti holati, foiz hisobida³⁵

Mamlakatlar	Birdamlik qoplash koeffitsienti	Mamlakatlar	Birdamlik qoplash koeffitsienti
Taraqqiy etgan mamlakatlar		Rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyoti mamlakatlari	
Avstraliya	42	Rossiya (2010)	35
Avstriya	72	O‘zbekiston	37,5
Belgiya	39	Bolgariya	44
Buyuk Britaniya	29	Vengriya	72
Germaniya	41	Meksika	38/34
Gretsiya	94	Polsha	56
Irlandiya	34	Ruminiya	29
Ispaniya	73	Slovakiya	56
Italiya	69/54	Turkiya	86
Kanada	42	Chexiya	47
Niderlandiya	89	Korea Respublikasi	40
Norvegiya	54	Ushbu mamlakatlar bo‘yicha o‘rtacha daraja (Rossiyadan tashqari)	50/51,6
Portugaliya	54		
Frantsiya	51		
AQSh	37	Evropa Ittifoqi bo‘yicha o‘rtacha daraja	49,7
Yaponiya	34		

Ushbu ko‘rsatkichni o‘zgarishi har bir mamlakatning tarixan shakllangan xususiyatlari va iqtisodiy imkoniyatlari asosida sodir bo‘ladi. “Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda pensiyalarning o‘rtacha miqdori o‘rtacha ish haqiga nisbatan 37,5

³⁵ Гурвич Е.Т. Пенсионная реформа: общие принципы и необходимые меры. Февраль 2011. <http://www.gosbook.ru/document/16883/16915/preview>.

foizni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich Rossiyada 25,7 foizdan, Markaziy Osiyo mamlakatlarida 23-28 foizdan iboratdir.³⁶

Hozirgi vaqtda Yelning ko'pgina mamlakatlarida oila daromadini himoya qilish dasturi o'z rivojlanishining yuksak darajasiga yetgan. Skandinaviya mamlakatlarida bunday dasturlar mintaqaviy va mahalliy darajalarda amal qiladi. Yevropa janubidagi mamlakalarda ular deyarli mavjud emas.

Fransiyada majburiy pensiya ta'minoti rejimlaridan tashqari, kapitallashtirish prinsiplariga asoslangan va korxonalar tomonidan muayyan toifadagi xodimlar uchun tashkil etiladigan nomajburiy qo'shimcha dasturlar ham mavjud. Xususiy pensiya jamg'armalari yoki qo'shimcha kapitallashtirish jamg'armalarida ixtiyoriy shaxsiy ishtirok keng tarqalmaganing sabablaridan biri shundaki, majburiy ta'minot tizimi mehnat daromadlari o'rnini bosishning yuksak darajasini ta'minlaydi.

Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari o'z pensiya tizimlarini isloh qilishga jahonda pensiya ta'minotining rivojlanish imkoniyatlari haqida qizg'in munozaralar boshlangan va shakllangan, pensiya sxemalarini yangi demagrafik va ijtimoiy –iqtisodiy sharoitlarga moslashtirish amalgam oshirilayotganiga 20 yildan oshgan bir sharoitda kirishdilar. Shu sababli, Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari jahon tajribasidan saboq olish va nazorat qilishga qodir qonun-qoidalarining kelajakka qaratilgan izchil va o'zaro bog'langan majmuini ishlab chiqish imkoniyatiga ega edilar.

Vengriyada amaldagi taqsimlovchi pensiya tizimini modernizatsiya qilishning mohiyati quyidagilardan iborat:

–pensiyaga chiqish yoshi asta sekinlik bilan erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham 62 yoshgacha oshirildi.

–pensiya olish uchun kerak bo'ladigan eng kam ish staji 15 yildan 20 yilga ko'paytirildi, muddatidan ilgari pensiyaga chiqish uchun zarur ish staji 10 yilni tashkil etdi.

³⁶ Karimov I.A. 2014 yil o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo'li bo'ladi. –T.: "O'zbekiston", 2014. 22-b.

Ushbu tizim doirasida o'rtacha ish haqi olinadigan xodim o'rtacha sof ish haqining 60 foizi darajasida pensiyaga umid qilishi mumkin. Mehnat faoliyatini boshlayotgan va ish stajiga ega bo'lmagan shaxslar yangi uch darajali pensiya tizimida ishtirok etishlari shart. Mehnat faoliyatiga islohatlar boshlagan davrga qadar kirishgan shaxslar uchun yangi tizimga o'tish ixtiyoriydir. Hisob kitoblar 35-40 yoshdan kichik shaxslar uchun yangi tizimga o'tish foydali bo'lishini ko'rsatadi.

Chexiyadagi pensiya islohatida asosiy e'tibor amaldagi taqsimlovchi pensiya tizimini modernizatsiya qilish va ixtiyoriy xususiy pensiya jamg'armalari faoliyatini tartibga solish masalalariga qaratilgan. 1995-yilda qabul qilingan asosiy davlat pensiya tizimi to'g'risidagi qonunda avvalo pensiya yoshini asta sekin oshirib borish nazarda tutulgan edi.

3.2 O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimi jamg'armalari barqarorligini ta'minlashning ayrim jihatlari

Mustaqillikning ilk kunlaridanoq davlat qurilishi dasturining va O'zbekistonni iqtisodiy isloh qilishning butun o'zagini mamlakat Prezidenti tomonidan ishlab chiqarilgan "O'zbek modeli"ga xos besh asosiy tamoyil tashkil etgan bo'lib, unda aholining mavjud turmush darajasini hisobga olgan holda bozor munosabatlariga o'tish bilan bir qatorda fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish sohasida kuchli chora-tadbirlarni oldindan amalga oshirish lozimligi qayd etilgan. Bozor iqtisodiyoti sari tinimsiz rivojlanib borish bilan birga, ijtimoiy himoyalash va kafolatlashning kuchli, ta'sirchan mexanizmi yaratildi, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishildi. Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti infratuzilmasini yaratishning kompleks rejasi besh tamoyilda o'z aksini topar ekan, ijtimoiy hayotning barcha jabhalari qamrab olindi. Bu tanlangan demokratik yo'l aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj tabaqalariga iqtisodiy madad berish orqali fuqarolar osoyishtaligini va millatlararo totuvlikning ta'minlashni, islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishning kafolati, pensionerlar va nogironlarga, ya'ni

iqtisodiy o'tish sharoitida qiyin ahvolga tushib qolgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, ijtimoiy himoyalash tizimining asosiy yo'nalishi bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va hududlarda ularning tuzilmalari tashkil etilib, O'zbekistonda fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti sohasida yagona elektron baza tizimi yaratilib, soha faoliyati takomillashib borayotganligi, jamg'armaning xududiy bo'limlarini zamonaviy axborot texnologiyalari bilan texnik jihozlash darajasini keskin oshishi, respublikamizda pensioner va nogironlarni manzilli himoya qilishni, ularning turmush darajasi va hayot sifatini oshirish zarurligi hamda ijtimoiy muhofazasini ta'minlashda qonunchilik bazasining takomillashib borishi, shuningdek, ijtimoiy xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish hamda mamlakatimizda bu qatlam vakillarini qo'llab-quvvatlashda katta ahamiyat kasb etadi. Pensiya yoshiga etib mehnat faoliyatini davom ettirayotgan fuqarolar manfaatlarini muhofaza qilishni ta'minlashga qaratilgan qonunchilik bazasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb vazifasidir, fuqarolarga qarilik chog'ida tayinlanadigan davlat pensiyalariga qo'shimcha jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotining roli ayniqsa ortib ormokda.

Hozirgi paytda, davlat pensiya ta'minoti sohasida kadrlar samaradorligini oshirishga, uning sifat tarkibini yaxshilashga hamda sohani oliy ma'lumotli kadrlar bilan butlashga alohida e'tibor qaratilgan va bu borada amalga oshirilgan chora-tadbirlar birmuncha samarali natijalarga erishishni ta'minlamoqda. Sohada kadrlar siyosatini to'g'ri yo'lga qo'yish, uning samaradorligini oshirish maqsadida, jamg'arma tizimida yosh mutaxassislarni «Ustoz-shogird» usulida tizimli tarbiyalash mexanizmi joriy etilgan. Bugungi kunda yosh mutaxassislar tomonidan davlat pensiya ta'minotini mukammal o'zlashtirib borishlarini ularning amaliy ish faoliyati davomida hamda tashkil etilgan ko'rik-tanlov nominatsiyalarida munosib o'rinlar egallab kelishlari bilan izohlash mumkin. Pensiya jamg'armasining hududiy boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari mutaxassislari ishtirokida videoseminarlar, o'quv-amaliy seminarlari tashkil qilish orqali ularning kasbiy mahoratlari muntazam oshirib borilmoqda, bu borada chet el tajribasidan amaliy

foydalanilmoqda.

Shuningdek, joriy yilda jamg'arma tizimida tashkil etilgan «O'quv majmuasi»da 300 nafardan ziyod tuman (shahar) bo'lim xodimlari tahsil olishgan bo'lsa, kelgusida ushbu o'quv mashg'ulotlarini davom ettirish va ko'shimcha ravishda 600 nafar tizim mutaxassislari malakasini oshirish rejalashtirilgan.

Pensioner va nogironlarning turmush darajasi va hayot tarzi sifatini yanada oshirish hamda ijtimoiy muhofazasini mustahkamlash, davlat pensiya tizimini 2012-2016 yillarda barqaror rivojlantirish, maqbul ijtimoiy muhitni shakllantirish yo'li bilan fuqarolarni kafolatlangan davlat pensiyalari bilan ta'minlash hamda bu borada joylardagi shart-sharoitlarni yaxshilash yuzasidan Kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi va mazkur dastur o'rnatilgan tartibda Vazirlar Mahkamasida tasdiqlandi. Ijtimoiy sug'urtani samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan O'zbekistonda pensiya tizimini isloh qilishning kontseptsiyasi, eng avvalo, aralash pensiya tizimini shakllantirishni ko'zda tutgan bo'lmog'i lozim. Ko'zda tutilayotgan aralash pensiya tizimida dastlabki bosqichlarda birdamlik tizimi (avlodlarning birdamligi) ustuvor ahamiyat kasb etgan bo'lishi kerak. Undan so'ng esa, bu tizim bosqichma-bosqich o'z o'rnini jamg'ariladigan pensiya tizimiga bo'shatib berishi zarur. Pensiya tizimini isloh etish, rivojlantirish, uni moliyalashtirishni takomillashtirishning zamonaviy yo'nalishlarini belgilashda, eng avvalo, masalaning quyidagi ikki jihatiga e'tibor bermoq lozim:

- pensiya tizimini isloh etishning jahon ilg'or tajribasini o'rganish va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlarini aniqlash;

- keyingi yillarda mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro'y bergan o'zgarishlarni hisobga olgan holda pensiya tizimini moliyalashtirishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlarini belgilash;

- v) pensiya yoshidagi shaxslarning moliyaviy ta'minoti manfaatlarini va iqtisodiy o'sishni oqilona ta'minlash uchun quyidagi uch ko'rinishdagi pensiya tizimlari paralel rivojlanishi lozim:

- davlat tomonidan boshqariladigan taqsimlovchi tizim;

- xususiy boshqaruvda bo'lgan majburiy jamg'arib boriladigan tizim;

- ixtiyoriy jamg'arib boriladigan tizim.

O'zbekiston Respublikasida pensiya tizimini rivojlantirish istiqbollari sifatida quyidagilarni taklif qilamiz:

– pensiya ta'minotini takomillashtirish bo'yicha kontseptsiyani ishlab chiqib va tasdiqlash zarur;

– pensiya ta'minotida imtiyozli mehnat pensiyasiga chiqishdagi ro'yxatni qayta ko'rib chiqish va uni qisqartirish taklif etiladi;

– pensiya sug'urtasini davlat shakli bilan bir qatorda nodavlat shakllarini ham joriy etish zarur;

– O'zbekiston Respublikasining «Nodavlat pensiya fondlari to'g'risida»gi qonunni qabul qilish borasida ish olib borilishi maqsadga muvofiqdir;

– pensiya jamg'armasida xarajatlarni va daromadlarni optimallashtirish orqali zahira jamg'ar yaratish va to'plangan jamg'arlarni investitsion dasturlarga qo'llash va bu orqali moliyaviy barqarorlikni yanada oshirish kerak;

– qonunchilikda belgilangan holatda kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona ijtimoiy to'lovni to'lash va hisobotlarni topshirish muddatlari tubdan farq qiladi. Ushbu toifaga kiruvchi korxonalar uchun hisobot chorakda bir marta elektron tarzda topshirilsa, yagona ijtimoiy to'lov har oyda amalga oshirilishi kerak. Hisobotlarni topshirmasdan yagona ijtimoiy to'lovlarning o'tkazilishi haqiqiy hisobot ma'lumotlariga asoslanmasdan tavofutlar kelib chiqishini keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida ortiqcha to'lovlar yoki asossiz penyalari hisoblanishiga olib keladi. Shundan kelib chiqib, bizningcha kichik korxona va mikrofirmalarda yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisobotlarni topshirish muddatlari bilan to'lovni amalga oshirish muddatlarini muvofiqlashtirish maqsadga muvofiq;

– yagona ijtimoiy to'lov bo'yicha hisoblash bazasini kengaytirilishi zarur. Bunda avvalom jismoniy shaxslarning qo'shimcha daromadlari sifatida e'tirof etiladigan mulkiy daromadlardan yagona ijtimoiy to'lov hisoblanishi maqsadga muvofiqdir;

– mamlakatda istikomat qilayotgan barcha fuqarolar uchun pensiya buyicha sug'urtalanishni umumiy majburiy xarakterga ega bulishini ta'minlash zarur;

– fuqarolar uchun turli xil shakldagi pensiya jamg'armalariga bulgan

imkoniyatini yaratish va erkin tanlovni amalga oshirishga huquq berish;

- xalq banki orqali jamg‘arib boriladigan shaxsiy pensiya jamg‘armalarini turli xil salbiy iqtisodiy xolatlardan ximoyalash, ular buyicha urnatilgan jamg‘arma ustama foizlarini zamon talabidan kelib chiqib oshirib borish talab etiladi;

- amaldagi pensiya ta‘minoti tushunchasi urniga muqobil bulgan xamda fuqarolar tomonidan keng kullab-kuvvatlanayotgan pensiya sug‘urtasi tushunchasini kiritish, uylaymizki, boshqaruv mexanizmlari orqali shakllangan pensiya jamg‘armasiga muqobil nodavlat pensiya jamg‘armalarining yaratilishiga asos buladi.

Mamlakatda amal qiladigan pensiya ta‘minoti tizimi iqtisodiyotda shakllanadigan moliyaviy resurslarni qayta taqsimlashning yirik mexanizmi bo‘lib, iqtisodiyotda mahsulotlar, resurslar va daromadlarning makroiqtisodiy doiraviy aylanishiga, aholining iqtisodiy faolligini rag‘batlantirishga jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. Pensiya tizimi bilan iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari uzviy bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri tashkil etilgan pensiya tizimi iqtisodiyotni investitsiyalashning moliyaviy manbasi bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Ma‘lumki, 2015 yildan boshlab respublikamizda fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi amaliyotga joriy qilindi, jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti iqtisodiy faol aholining ish joyi, mehnatga layoqati va daromadini yo‘qotish bilan bog‘liq turli hodisalardan ijtimoiy himoyalash shakli hisoblanadi. “Jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti” moliyaviy kategoriya sifatida pul mablag‘larining maqsadli fondlarni shakllantirish va fuqarolarning keksalik chog‘ida foydalanishning shakl va usullarini o‘z ichiga olgan iqtisodiy munosabatlar tizimini aks ettiradi.

O‘zbekiston Respublikasida qabul qilingan “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi Qonunning maqsadi – fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat. Davlatning nazorati asosida ish beruvchilar va ishlovchilarning maqsadli badallaridan shakllanuvchi ijtimoiy jamg‘armalardan pensiyalarning moliyalashtirilishi jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining xususiyatli jihatidir. Qonunda belgilanishicha, O‘zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek,

O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega".

Xorijiy tajribalar shuni ko'rsatadiki, jamg'ariladigan pensiya fondlari aktivlarining asosini qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalar tashkil etadi. Xususiy pensiya fondlari pul mablag'larini uzoq muddatga joylaydi, xususiy va davlat qimmatli qog'ozlarini sotib oladi. Xususiy pensiya fondi passiv operatsiyalari asosini korporatsiya va korxonalardan keladigan resurslar tashkil etadi, tushumning 20-30 foizi ishchi va xizmatchilar badallaridan iborat. Ekspertlarning hisob-kitobi bo'yicha, qimmatli qog'ozlardan olinadigan daromadlarning bir foiz oshishi to'lanadigan pensiyalar miqdorini bir necha foiz oshirishga imkon beradi. Boshqacha qilib aytganda, qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun ajratilgan mablag'lar o'sha qimmatli qog'ozlarni hozirgi real qiymati bo'yicha sotilgandan so'ng fuqarolarga pensiya ko'rinishida qaytariladi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish sohasi uchun uzoq muddatli kapital etishmasligi va unga keskin ehtiyoj mavjudligi sharoitida xususiy pensiya fondlari birinchidan, uzoq muddatli kreditlash fondlarini oshirish imkonini bersa, ikkinchidan, bunday tuzilmalarning yaratilishi budjetning ijtimoiy ta'minot xarajatlarini kamaytirish imkonini beradi.

Jahon tajribasidan ma'lum bo'ldiki, pensiya tizimini faqat davlat tomonidan moliyalashtirish etarli samara bermaydi. Hozirgi kunda pensiya tizimini moliyalashtirishning bir vaqtning o'zida uch yo'nalish: minimal pensiyani kafolatlaydigan davlat pensiya tizimi, professional assotsiatsiya yordamida o'zining ish beruvchilariga qo'shimcha pensiya berish fondlarini shakllantirish, fuqarolar imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda alohida, xususiy pensiya fondlarini tashkil qilish yo'nalishlari tobora ko'proq ma'qullanmoqda. AQSh, Gollandiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Shveytsariya, Italiya kabi mamlakatlarda shu tajribalardan foydalaniladi.

Pensiya bilan ta'minlashni xususiylashtirish dasturi iqtisodiyotga investitsiyalarni safarbar etishning ichki imkoniyatlarini orttiradi. Kapital

bozorining tobora rivojlanishi pensiya fondlari mablag'larini investitsiya qiladigan moliyaviy dastaklarni qo'llash uchun juda muhim. Shu tarzda davlat, jamg'ariladigan va xususiy pensiya ta'minoti tizimlari moliyaviy asoslarini mustahkamlash maqsadga muvofiq bo'ladi hamda bozor sharoitlariga ayniqsa mos keladi.

Jamg'ariladigan pensiya tizimlari hukumatning moliyaviy kafolatlaridan foydalanadi, ular daromadni ta'minlash imkonini beruvchi moliyaviy bozorlarning ishtirokchilariga aylanadi. Natijada pensiya to'lovlari uchun mablag'lar ishlovchilarning pensiyaga chiqqunga qadar bo'lgan ish haqidan, shuningdek, to'langan badallari miqdoriga hisoblangan foizlar hisobiga ko'payadi.

Jamg'arib boriladigan pensiya tizimida, davlatning sug'urtaviy pensiya tizimidan farqli ravishda, jamg'arma badallari nisbatan yuqori darajada belgilanadi va tegishli zaxira fondi shakllantiriladi. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimidan foydalanish amaldagi pensiya tizimi muammolarini kamaytirish va fuqarolarning qo'shimcha pensiya bilan ta'minlanish imkoniyatlarini oshirishga yo'naltirilgan.

Xorijiy davlatlarda mamlakat pensiya tizimini umumlashgan uch darajali tizim shaklida tasavvur qilish mumkin:

- davlat nazorati ostida amalga oshiriluvchi umumiy va majburiy pensiya tizimi. Mazkur modelda pensiya miqdori ish haqi miqdoriga bog'liq bo'lib, pensiyalarni to'lash ish beruvchi va yollanma ishlovchidan olinadigan badallarni qayta taqsimlash tamoyili asosida moliyalashtiriladi;

- majburiy jamg'arma tizimi orqali beriladigan va minimal jamg'arma stajini "to'plagan" fuqarolar uchun davlat budjetidan foydalanuvchi ijtimoiy pensiya tizimi;

- to'la kapitallashtirish va jamg'arish tamoyiliga asoslangan, individual hisobraqamlarni yuritish orqali amalga oshiriladigan pensiya tizimi.

Birinchi ikki holatda davlat keksaygan shaxslarga minimal pensiya yoki ijtimoiy himoyalash sifatida ijtimoiy yordam ko'rsatadi. Xorijiy davlatlarida moliyaviy bozorning ma'muriy imkoniyatlari etarli darajada rivojlangan, davlat va jamg'ariladigan pensiya fondlari faoliyatini tartibga solish va nazoratni amalga

o'shish imkoniyatiga ega. Bizning mamlakatimizda ikki xil: "avlodlar birdamligi" va jamg'ariladigan pensiya tuzilmalarining tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qiladi. Gap shundaki, daromad miqdori uncha yuqori bo'lmagan fuqarolar o'z daromadlarining ko'p qismini iste'molga ishlatishga majbur bo'lganligi sababli jamg'ariladigan pensiya tizimida ixtiyoriylik asosida to'laqonli ishtirok eta olmaydi, lekin bu sabab bo'lib jamg'ariladigan pensiya tizimidan butunlay voz kechish kerak, degan xulosa qilish ham noo'rindir.

Respublikamizda pensiya tizimini moliyalashtirishdagi islohotlarni tezlikda amalga oshirib bo'lmaydi, ularni iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar bilan: bandlik, mehnat bozori, aholi daromadlari, soliq, moliya va kredit sohasidagi islohotlar bilan birgalikda, uzviylikda amalga oshirish lozim. Bu islohotlar tashkiliy, huquqiy, iqtisodiy masalalar bilan birga, pensiya ta'minotini mablag' bilan barqaror ta'minlashga qaratilgan moliyaviy muammolarni hal qilishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

III- bob bo'yicha xulosa

1. Pensiya ta'minoti tizimida islohotlarni amalga oshirishda quyidagi omillarga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz:

- pensiya ta'minotini qamrab olish ko'rsatkichlari;
- pensiya ta'minoti to'lovlarining moslashuvchanligi (inflyatsiya va sotib olish qobiliyatini inobatga olgan holda);
- pensiya fondlariga badallarni to'lovchilarning ulushlariga mos ravishda to'lovlarni amalga oshirish;
- pensiya ta'minoti tizimida daromadlar olishni diversifikatsiyalash (davlat va xususiy sug'urtaviy).

2. Pensiya to'lovlarini amalga oshirishga mo'ljallangan Pensiya jamg'armasi fuqarolarning o'z sug'urta badallari bilan umumjamiyat fondida ishtirok etishlari asosida shakllanadi, lekin Pensiya jamg'armasidan sug'urta fondining shakllanishida ishtirok etmaydigan fuqarolarga nafaqalar to'lash amaliyoti Pensiya jamg'armasi moliyaviy holatining yomonlashuviga olib kelayotganligini kuzatish

mumkin, shu sababli pensiyalarni Pensiya jamg'armasidan to'lash amaliyotini saqlab qolgan holda, nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamni to'lash og'irligini davlat byudjeti yoki boshqa ijtimoiy sug'urta fondlariga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lardi. Shu bilan birga, mavjud pensiya ta'minoti tizimi, uning moliyaviy barqarorligi masalalari, ijtimoiy sug'urta badallarining qoplash koeffitsientini oshirish muammolari, pensiyalarning o'rtacha miqdorlari, ularning to'lovga layoqatlilik darajasi bu tizimda islohotlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi.

3. Sug'urta badallari to'lovlarini yig'ish va ularni sarflashni tartibga solish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- sug'urta badallari to'lovlarini to'laydigan har bir yuridik va jismoniy shaxslarning aniq hisobini elektron tarzda yuritish va uning xavfsizligini ta'minlash;

- har bir fuqaro tomonidan to'lanayotgan sug'urta badallarining shaxsiy hisob-kitobini yuritish;

- har bir fuqaroning ish stajlari hisob-kitobini yuqori muhofazalangan holda elektron tarzda yuritib borish;

- sug'urta badalini to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tmaganlar, badallarni o'z vaqtida to'lamayotgan yoki kamaytirib to'layotganlarga solinadigan jarimalar miqdorini oshirish;

- oxirgi yillarda byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'larida ijobiy saldoning yuzaga kelayotganligidan kelib chiqib, Pensiya jamg'armasining pul mablag'larini moliya bozorida oqilona joylashtirish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Magistrlik dissertatsiyasi ustida olib borilgan izlanishlarimiz asosida quyidagi xulosalarni shakllantirishga muvaffaq bo'ldik:

- mamlakatimizda shakllangan va amalda bo'lgan pensiya ta'minoti tizimi mamlakatimiz fuqarolarining ijtimoiy ta'minot bo'yicha huquq va manfaatlarini har tomonlama inobatga olgan holda shakllantirilgan;

- pensiya va nafaqalar maksimal darajada fuqarolarning ijtimoiy himoyasiga yo'naltirilganligi bilan xarakterlanadi;

- pensiyalarni hisoblash, tayinlash va to'lash jarayoni ancha murakkab jarayon bo'lib, pensiya ishi mutaxassislaridan pensiya qonunchiligini mukammal bilishni, me'yoriy hujjatlarni bilishni va ularni amalda qo'llay olishni talab etadi;

- pensiyalarni tayinlash, hisoblash va to'lash har bir fuqaroning pensiya ishiga yakka tartibda individual tarzda yondashishni talab etadi;

- pensiyalarning bor-yo'g'i uch turi mavjudligi bilan birga, ular har biri bo'yicha keng tarkibdagi imtiyozlar tizimi mavjudligi bilan xarakterlanadi;

- pensiya to'lovlarini amalga oshirishga mo'ljallangan pensiya jamg'armasi fuqarolarning o'z sug'urta badallari bilan umumjamiyat fondida ishtirok etishlari asosida shakllanadi, lekin Pensiya jamg'armasidan sug'ura fondining shakllanishida ishtirok etmaydigan fuqarolarga nafaqalar to'lash amaliyoti Pensiya jamg'armasining moliyaviy holatining yomonlashuviga olib kelayotganligini kuzatish mumkin, shu sababli pensiyalarni Pensiya jamg'armasidan to'lash amaliyotini saqlab qolgan holda, nafaqalar va boshqa ijtimoiy yordamni to'lash og'irligini davlat budjeti yoki ijtimoiy sug'urta fondlariga o'tkazish maqsadga muvofiq bo'lardi;

- shu bilan birga, mavjud pensiya ta'minoti tizimi, uning moliyaviy barqarorligi masalalari, ijtimoiy sug'urta badallarining qoplash koeffitsientini oshirish muammolari, pensiyalarning o'rtacha miqdorlari, ularning to'lovga layoqatlilik darajasi bu tizimda islohotlarni davom ettirish zarurligini taqozo etadi.

Xulosalarimiz asosida quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- pensiya tizimini moliyaviy barqarorligini ta'minlashga qaratilgan maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;

- ko'p darajali kombinatsiyalashgan pensiya tizimini shakllantirish;

- fuqarolarni rasmiy ish bilan bandligini ta'minlash;

- kichik biznesni rivojlantirish va rag'batlantirish orqali ular tomonidan byudjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga tushumlarni kupaytirish;

- "Nodavlat pensiya fondlari", "Davlatning ijtimoiy sug'urtalash", "Majburiy xususiy pensiya ta'minoti" kabi pensiya tizimini modernizatsiyalashni huquqiy asosini tashkil etuvchi qonunlarni qabul qilish;

- O'zbekistonda pensiyani mehnat stajiga qarab to'lashdan sug'urta stajiga asosan to'lashga bosqichma-bosqich o'tish;

- pensiya jamg'armasi mablag'larini shakllantirish mexanizmini takomillashtirishda byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga majburiy ajratmalarni hisoblash ob'ektiga korxonalar faoliyatidan olingan boshqa daromadlarni ham kiritish;

- pensionerlarni indeksatsiya qilish metodini inflatsiya koefitsientiga bog'lash lozim. Bugungi kunda MDH davlatlarida ish xaqining o'sishi pensiya to'lovlari darajasiga ta'siri saqlanib qolingan bo'lib xorijiy davlatlar tajribasiga ko'ra pensiyalarni indeksatsiya qilishda inflatsiya koefitsientini hisobga olish eng samarali usul bo'lib hisoblanmoqda. Pensiyalarni indeksatsiya qilishda inflatsiya koefitsientini qo'llash pensionerlarni qisqa davr mobaynida samarali himoya qilish imkoniyatini yaratib, xarid qobiliyatini saqlab qolib, uzoq davr mobaynida pensiya ta'minoti tizimini barqarorlashtirish imkoniyatini yaratadi.

- ishchilar tomonidan to'lanadigan sug'urta badali ulushini xodimlar daromadidan kelib chiqib to'lanishini joriy etish. Masalan daromad solig'i ushlab qolishning uch pog'onali darajasidan foydalanish. Bunda xodimning daromadidan minimal ish xaqining 1-5 barobaridan 7,5%, 5-10 barobaridan 8,5%, 10 barobaridan yuqori qismidan 9% miqdorida undirib boriladi, lekin daromad solig'idan imtiyoz berilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Me'yoriy-huquqiy xujjatlar va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 16-son, 176-modda.

1.2. O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. O'zbekiston Respublikasi qonuni. O'RQ-360-son. 26.12.2013. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2013 y. №52-I-son.

1.3. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-938-XII-son, 03.09.1993.

1.4. O'zbekiston Respublikasi "Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida"gi Qonuni. 702-II-son, 02.12.2014.

1.5. "Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonunining 1998 yil 1 mayda tasdiqlangan yangi tahriri (616-I-son Qonun) (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.6. O'zbekiston Respublikasi "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonuni. O'RQ-376-son. 25.09.2014. O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2014-y., 39-son, 488-modda.

1.7. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi -T., O'zbekiston 2008-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.8. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi- T., O'zbekiston 2010-yil (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).

1.9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2009-yil 30-dekabrdagi PF-4161-son Farmoni.

1.10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son Farmoni, Xalq so'zi, 2017-y., 28 (6722)-son; O'zbekiston Respublika qonun hujjatlari to'plami, 2017-y., 6-son, 70-modda.

1.11. “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” Davlat dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 17-dekabr F-4760-son farmoyishi, O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 8-son, 119-modda.

1.12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tshqari Pensiya jamg‘armasining tashkiliy tuzilmasini shakllantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2009-yil 30-dekabrda PQ-1252-son Qarori.

1.13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1675-sonli qarori.

1.14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2013-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-1887-sonli qarori.

1.15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 25-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2014-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2099-sonli qarori.

1.16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014-yil 4-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2015-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2270-sonli qarori.

1.17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2455-sonli qarori.

1.18. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 27-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining 2017-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari prognozlari va davlat byudjeti parametrlari to‘g‘risida”gi PQ-2699-sonli qarori.

1.19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-martda “Moliya organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2847-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublika qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 13-son, 201-modda.

1.20. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ish bilan bandligini kengaytirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2008 yil 29 dekabrda PQ-1024-son Qarori.

1.21. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Farmoni. 2017 yil 24 may.

1.22. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 24.05.2011 yil 145-son Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 21 dekabrda 595-son Qarori bilan tasdiqlangan “Xalq banki tomonidan fuqarolarni jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida shaxsan hisobga olishni yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritish haqida”gi Qarori.

1.23. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 21-dekabrda “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida”gi qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqidagi 595-sonli Qarori.

1.24. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-dekabrda 252-son “Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida”gi Nizomi

1.25. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida. – T.: “O‘zbekiston”, 1995. 119-b.

1.26. Karimov I.A. 2014 yil o‘sish sur‘atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish o‘zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yo‘li bo‘ladi. –T.: “O‘zbekiston”, 2014

1.27. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.

1.28. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 104 b.

1.29. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 56 b.

1.30. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 48 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

2.1. Abdurahmonov Q.X. Inson taraqqiyoti. Darslik. tahriri ostida . – T.: Iqtisodiyot, 2013.

2.2. Ahmedov D.Q. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik. –T. TDYUI nashriyoti, 2008. 406 бет.

2.3. Allayorov Sh., Toshmuxamedova D., Davlat pensiya ta'minoti.O'quv qo'llanma.-Toshkent, T.:Iqtisod-Moliya 2015.-248 b;

2.4. Eshnazarov T. G'aznachilik tizimi munosabatlari. Monografiya. – Toshkent: “Fan”, 2008. -296 b.;

2.5. Jun Peng. State and Local Pension Fund Management. (Public Administration and Public Policy) 0th Edition . USA: Publisher: Auerbach Publications (August 21, 2008). – P. 280.

2.6. Malikov T., Jalilov P., Byudjet-soliq siyosati. Mongrafiya. T.: Akademnashr, 2011. 472 b.

2.7. Mirzamahmudov M.M. Maqsadli jamg'armalardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirish. Monografiya. -T.: «IQTISOD-MOLIYA». 2013.-112 b.;

2.8. Nurmuxamedova B., Kabirova N. “Moliya”, O'quv qo'llanma. T., “IQTISOD-MOLIYA”, 2014. 224b.

2.9. Pulatov D.X. Nurmuxamedova B.I. G'aznachilik. O'quv qo'llanma. T.: “Sano-standart”, 2014. 272b.

2.10. “Pensiya ta'minoti tizimini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to'plami. – T.:Universitet. 2014.

- 2.11. Xayitov A., Ziyadulaev M. O‘zbekistonda pensiya ta’minoti va xorijiy tajribasi. O‘quv qo‘llanma. -T.: “Adolat”. 2009. -172 b;
- 2.12. Xolmo‘minov J.T., Dusmanov A.X., Tillayev T.N. Mehnat huquqi. Ma’ruzalar kursi. –T. O‘zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi, 2008. -162 b.
- 2.13. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya. Darslik. –Toshkent: “Noshir”, 2012 y.-712b.
- 2.14. Shennaev X.M., Kenjaev I.G‘. Chet mamlakatlar sug‘urtasi. O‘quv qo‘llanma.- T.: 2012 y.- 258 b
- 2.15. Shennaev X.M., Xalikulova G.T. Sugu’rta marketingi.O‘quv qo‘llanma.-T.: 2012 y, 235 b.
- 2.16. Saidov M.X. Ijtimoiy himoya.Atamalar izoxli lug‘ati. -T.: “A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxona nashriyoti”. 2004, 73-bet
- 2.17. O‘zbekiston: Barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning va inson taraqqiyoti prinsiplarini amalga oshirishning parlament tomonidan ta’minlanishi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati, O‘zbekistondagi BMT Taraqqiyot dasturi. Amaliy qo‘llanma. 2011.
- 2.18. G.Qosimova,Z.Karimova. Budjetdan tashqari fondlar. O‘quv qo‘llanma. 2009-y.
- 2.19. Галаганов В.П. Основы страхования и страхового дела. Учебное пособие-М: Конрус, 2010г. -472 с.
- 2.20. Гурвич Е.Т. Пенсионная реформа: общие принципы и необходимые меры. Февраль 2011 г.
- 2.21. Карчевский В.В., Андросова Л.Д., Окунева Л.П., Смирнова Е.Е. Целевые бюджетные и внебюджетные фонды. Учебное пособие. - М.: “Вузовский учебник”. 2011. -224 с.
- 2.22. Никулина Н.Н. Страховой менеджмент.-ЮНИТИ,2011. -356 с
- 2.23. Игошин Н.А. Страховое право. Учебное пособие. - М.: Юнити. 2010. - 321 с.
- 2.24. Смирнова Е. Производственный риск: сущность и управление. Монография. -Москва.: 2012.128 с.;

2.25. Умурзаков Б.Х. Проблемы пенсионного обеспечения в условиях рыночных отношений. Ташкент-2005. Фан. С.355.

2.26. Marc Whitehead “The social security disability puzzle” 2010 y.

III. Foydalanilgan boshqa adabiyotlar

3.1. Internet saytlari:

www.lex.uz (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasi);

www.treasury.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G‘aznachiligi);

www.gov.uz (O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali);

www.mf.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi);

www.stat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistikasi qo‘mitasi).

www.soliq.uz (O‘zbekiston Respublikasining Davlat soliq qo‘mitasi);

www.xalqbank.uz (O‘zbekiston Respublikasi Aksiyadorlik tijorat Xalq banki);

www.mehnat.uz (O‘zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi);

www.pfru.uz (O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi);

www.norma.uz (Norma axborot-huquqiy portali).